

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!



VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning
24-iyunidan chiqa
boshlagan

2025-yil 28-noyabr
№48 (3162)

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

www.mv-vatanparvar.uz



*"Vatan yo'lida jasorat
hayotning eng ulug' ma'nosidir".
Cho'lpon*

IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv_vatanparvar_uz
vatanparvar-bt@mail.uz
facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi
instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya

“TUZUKLAR” DAN BUGUNGA QADAR...

**“Qayerdagi qonun
hukmronlik qilsa, o'sha
yerda erkinlik bo'ladi!”
Sohibqiron Amir Temurning
necha asrlar avval aytgan
shu iborasi bugungi
kunda el ichida hikmatga
aylanib ketgan.**

Davrlar o'tib, faqat qonunlar bilan boshqariladigan kuchli demokratik davlat qurish imkoni yaratildi. Mustaqillik yillarida Asosiy qomusimiz qabul qilindi. Unda shaxs erkinligi va huquqlarini to'la himoyalashni ta'minlaydigan moddalar yetakchi o'rin tutadi.

Dunyoda tengsiz madaniyat, tarix, siyosat va huquqshunoslik yodgorliklari hisoblangan “Temur tuzuklari”, “Boburnoma”, “Zafarnoma” kabi asarlardagi adolat mezonlari, milliy qadriyatlar Konstitutsiyamiz ruhiga singdirilgan.

Chetellik taniqli olim D. Logafet Amir Temur haqida shunday yozgan ekan: **“Yevropada Konstitutsiya haqida oddiy tushunchaga ham ega bo'lishmagan davrlarda uning davlatida konstitutsiyaviy qonunlar majmuasi, ya'ni “Tuzuk” mavjud edi”**.

Darhaqiqat, “Tuzuklar”da buyuk sohibqiron o'zi yuritgan siyosatning asl mohiyatini ifoda etib, “...turk-u tojik, arab-u ajamning turli toifada va qabilalaridan bo'lgan va mening panohimga kirgan kishilarning ulug'lariga hurmat ko'rsatdim, qolganlarini ham o'z holiga yarasha siyladim, yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarni esa o'z yomonliklariga topshirdim...” deb ta'kidlagan.

Tuzuklarda davlat tuzilishining asosiy bo'g'inlari, vazifalari, vazirlarning faoliyatlari, qo'shin tuzilishi, davlatning moliya va soliq siyosatini hal etish yo'llari aniq ifodalangan. Muhimi, adolat va haqiqat mezonlari bilan ish yuritish lozimligi ta'kidlab o'tilgan. Bular Amir Temurning yurtparvar va fuqaroparvar bo'lganini, mamlakat xalqi o'rtasida totuvlikni ta'minlab, ularning manfaatlarini qonun yo'li bilan himoya qilishga jiddiy e'tibor berganini ko'rsatadi.

Aslida ulug' va qudratli huquqiy davlatni barpo etish oson emas. Tarixga nazar solsak, payg'ambarimiz Muhammad s.a.v. arablarni bir butun millat etib birlashtirgan, bobomiz Amir Temur esa turklarni millat darajasiga yetkazgan.

O'zbek xalqi yaxlit bir millat sifatida shakllantirildi, yurt obodonchiligi, xalq farovonligiga erishilib, dunyo mamlakatlari o'rtasida obro'-e'tiborimiz yuqoriladi.

Bugungi kunda ulkan bunyodkorlik ishlariga qo'l urilib, har joyda shijoatkorlik, jasorat va qudratli kuch tantana qilmoqda. Vatan taqdiriga loqayd bo'lmagan ezgu niyatli har bir kishi yangilanishlar sabab ich-ichidan quvonayotgani rost.

G'OYAT GO'ZAL TILIMIZ BOR

Dunyo tamaddunini tilsiz tasavvur etish mumkin emas. Asosiy qonunimizning 4-moddasida o'zbek tiliga davlat maqomi berib o'tilgani qayd etilgan.

Konstitutsiyamizda O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi, deyilgan.

Umri davomida tilimizda ijod qilib, behisob ilm durdonalarini o'zlaridan meros qilib qoldirgan ajdodlarimiz bilan g'ururlansak, arziydi. O'zbek xalqi o'z tarixi davomida ana shunday ko'plab jahonshumul allomalarni, olim-u davlat arboblarni yetishtirib bergan.

QOMUSIY ILM SOHIBLARI – Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Mirzo Ulug'bek, Mahmud ibn ul-Husayn ibn Muhammad al-Koshg'ariy, Abul Qosim ibn az-Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Imom al-Buxoriy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ko'plab ulug'larimizning ma'naviy-ma'rifiy merosi to shu kunga qadar xalqimiz tomonidan qayta-qayta o'rganilmoqda.

Bashariyat madaniyatini yaratishda bevosita ishtirok etgan ajdodlarimizning ulkan xizmatlari tufayli o'zbek milliy-madaniy merosi jahon madaniyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib ketgan.

Demak, O'zbekiston teran davlatchilik ildizlariga ega bo'lgan o'ziga xos siyosiy, huquqiy, madaniy meros sohibidir.

ENG OLIY TUYG'UDIR SHU YURTNI SEVMOQ!

Jamiyatning ertangi kunini yaratish uchun har bir yigit-qiz, avvalo, sog'lom, serg'ayrat, kuchli va barkamol bo'lishi lozim. Buning uchun bizning yurtimizda barcha shart-sharoitlar muhayyo.

O'zimiz yashayotgan bemisl maskanni asrab-avaylash, uning kuch-qudratini oshirish va taraqqiyotiga munosib darajada hissa qo'shish qalbimizdagi ezgu niyatlardan biri bo'lmog'i zarur. Xususan, Asosiy qomusning 64-moddasida **“O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir...”** deyilgan.

“Bizdan faqat Vatan qoladi”, deyiladi bir qo'shiqda. Vatan aslida nima? Shu savolni ba'zan o'zinga berganim hamon men yuragimning ichiga boqaman. Bir munavvarlikni ko'raman. So'ng shu munavvarlikdan kuch olib, atrofga tikilaman va anglab yetamanki, tongning haroratida, quyoshdan to'kilayotgan shu'lalarda, gullar navozishida, qushlar sayrog'ida, daraxtlar bargi tovlanishida ajib bir o'zgachalik, shu ona zaminga bir erkalik hissi bor! Tabiatdagi mana shu his ko'ngilga ko'chib, so'ng muhabbatli sadolarga aylanadi. Vatan so'zini takrorlaguvchi bedor sadolardir bu.

Bir hamkasbim gapirib bergandi:

– Xorijga bordik. Iliq kutib olishdi. U yerda biz uchun jamiki qulayliklar yaratilgan, sayr-u sayohat, zavqli tomoshalar... Ammo ikki haftalar o'tib, ichimizda bir bo'shliq paydo bo'ldi, bir-birimizga sezdirmay, kun sanay boshladik. Ichki sabrsizlik... Nihoyat, safar oxirlab, ona yurtga oshiqdik. Qo'nayotganimizda aeroportdagi “Toshkent” yozuviga ko'zim tushgach... nimadir bo'g'zinga qadaldi, quvonchdan entikdim. Bilasizmi, agar odamni o'ldirsa, Vatan sog'inchi o'ldirarkan!

VATAN SHU QADAR AZIZ. Demak, o'zimiz ulg'ayib kamol topgan go'zal Vatanimizni ardoqlab suyish, unda farovon hayot kechirar ekanmiz, shukronalik hislari bilan yashash va mehnatlarimizni uning tobora gullab-yashnashi yo'lida sarflash ham ezgu va sharaflı burchlarimizdan biri sanaladi. Zero bu narsa Asosiy qomusimizda ham e'tirof etilgan.

VATANNI ASRA, YIGIT!

Vatan hamisha bizning chiroyli hayotimiz uchun qayg'uradi. Aslida siz ham uning taqdiriga daxldorsiz. Garchi she'rlarimizda aytilgani kabi:

*Biznikidir faqat shu yurt, shu chaman,
Kelajak bizniki – yorug' va porloq.
Sadoqat tuyg'usin ko'ngilda saqlang,
Yigitlar, siz doim bo'lingiz uyg'oq.
Zamonlar o'zgarar, o'zgarar dunyo,
Omad, baxt, g'alaba manguilik emas.
Bilingki, har neki isyonlar ichra.
Biz faqat Vatanni asrab qolsak bas!*

Har birimiz shu ona zaminda yayrab yashaymiz, behadik, beta'ma, beminnat va bexavotir...

Aniqrog'i, barcha huquq va erkinliklarga egamiz. Konstitutsiyamizning 54-moddasida ham “Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir” deb yozib qo'yilgan.

Ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, dunyoqarashini kengaytirish, chuqur ilm va katta iqtidor egasi bo'lishi uchun imkoniyatlar yaratish ishlari yurtimizda eng muhim vazifalardan biridir. Yoshlar uchun barcha huquq va burchlar belgilab berilgan Asosiy qomusimizning 78-moddasida “Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi”, deyilgan bo'lsa, 79-moddada “Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi”, deya yozilgan.

Bulardan tashqari, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga ham alohida e'tibor berilgan. Xususan, 50-moddada “Har kim ta'lim olish huquqiga ega... Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi”, deyilgan. 48-moddada esa har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega ekani e'tirof etilgan.

Konstitutsiyamiz baxtli kelajak sari dadil odimlashimizda yo'lchi yulduz, yanayam aniqroq aytganda, saodatli kelajagimiz mayog'idir.

Demokratiyaning qudratli manbai hisoblangan Asosiy qomusimiz shu yurt fuqarolarining ozodligini ta'minlash hamda milliy davlatchiligimizni ravnaq toptirish yo'lidan borishimizda biz uchun hayotbaxsh va ilhombaxsh dastur hisoblanadi.

Gulchehra JAMILOVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist



Birinchii harbiy ustoz

Yosh avlodni yurtga muhabbat, milliy g'urur, vatanparvarlik va sadoqat ruhida tarbiyalash har qanday millatning istiqboli, davlat mustaqilligi va barqaror taraqqiyotining poydevori sanaladi.

BARQAROR RIVOJLANISH GAROVI



Barqaror rivojlanish – bu faqat iqtisodiy o'sish emas, balki inson kapitali, ta'lim-tarbiya, sog'lom turmush tarzi, tinchlik va xavfsizlik, teng imkoniyatlar kabi sohalarida uzviy taraqqiyotni ta'minlash demak. Shu bois yoshlar ushbu maqsadlarning amalga oshishi uchun asosiy kuch, tayanch va ilhom manbaidir.

Ta'kidlash lozimki, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning eng muhim shartlaridan biri mamlakatda tinchlik va barqarorlikning ta'minlanishidir. Faqat xavfsiz va osoyishta sharoitdagina ta'lim rivojlanadi, iqtisod o'sadi, ijtimoiy adolat qaror topadi. Shuning uchun O'zbekistonda yosh avlodni vatanparvarlik, fidoyilik va yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash nafaqat harbiy sohaning vazifasi, balki barqaror rivojlanish siyosatining uzviy qismi hisoblanadi.

Yoshlarning mamlakat taraqqiyotidagi ishtiroki, jamiyatga faol integratsiyasi, harbiy xizmatga bo'lgan munosabati – bularning barchasi **ta'lim-tarbiya tizimining natijasi hisoblanadi**. Maktab, kollej, litsey va oliy ta'lim muassasalarida vatanparvarlik darslari, faxriylar bilan uchrashuvlar, ma'naviy-ma'rifiy anjumanlar, shuningdek yoshlar tashkilotlari o'quv tadbirlarini bu sohada unumli ishlar sirasiga kiritish mumkin.

Albatta, bolaning har qanday tarbiyasi, avvalo, oiladan boshlanadi, uning dunyoqarashi, muhabbat va sadoqat to'g'risidagi tasavvurlari, eng avvalo, ota-onaning hayot tarzi, so'zi va amaliy faoliyati asosida shakllanadi. Ta'lim muassasalari esa bu jarayonni izchil davom ettirib, yoshlar qalbidagi fidoyilik, mardlik va insonparvarlik kabi fazilatlarini yuksaltiradigan ma'naviy-ma'rifiy muhit hamda ularni ro'yobga chiqaradigan imkoniyatlarni yaratadi.

Ko'plab xorijiy mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, yoshlarni boshlang'ich harbiy tayyorgarlikka va favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga o'rgatish maqsadida uzviy ta'lim-tarbiya tizimi yo'lga qo'yilgan. Davlat va xususiy umumta'lim maktablari, harbiy-vatanparvarlik markazlari va harbiy sport klublarida chaqiruvga qadar tayyorgarlik hamda fuqarolar mudofaasi fanlari majburiy o'quv fanlar sifatida o'qitiladi.

E'tiborlisi shundaki, bunday ta'lim-tarbiya tizimida faoliyat yurituvchi kadrlarni tanlash va ishga qabul qilish jarayoni maxsus talablar va saralab olish tartibiga asosan amalga oshiriladi. Ularga rezervdagi ofitserlar, nafaqadagi politsiya xodimlari, favqulodda vaziyatlar xizmatining nafaqadagi qutqaruvchilari kiradi. Shuningdek, faxriylar, sport murabbiylari, jismoniy tarbiya muallimlari va maxsus harbiy kurslarni tamomlagan shaxslar ham mutaxassis sifatida jalb etiladi.

Bunday kadrlarni tanlashda ularning pedagogik va psixologik tayyorgarligi, yoshlar muhitini chuqur tushunishi, tarbiya berish qobiliyati va shaxsiy namunasiga alohida e'tibor qaratiladi. Barcha mutaxassislar ixtisoslashtirilgan tayyorgarlik, qayta tayyorlash va malaka oshirish o'quvlarida ishtirok etishi majburiy hisoblanadi. Tanlangan kadrlarning asosiy vazifasi – yoshlarda intizom, mas'uliyat, jamoada ishlash, yetakchilik, favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish va harbiy xizmatga tayyorlashga qaratilgan.



YOSHLAR VA MILLIY QADRIYATLAR

Mamlakatning barqaror kelajagi, avvalo, yoshlarning ma'naviy yetukligi, jismoniy baquvvatligi va yurtparvarlik ruhi bilan chambarchas bog'liq.

Prezidentimizning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasidagi nutqida **“Ertangi kunimiz, dunyoning taqdiri va farovonligi o'sib kelayotgan yosh avlod qo'lida. Yoshlarimizning qalbi va ongiga tinchlik, vatanparvarlik, gumanizm va do'stlik kabi oliyjanob g'oyalarni singdirish dolzarb vazifamizdir”**, deya ta'kidlagani bu fikrni qanchalik dolzarbligidan dalolat beradi. Bu so'zlar yoshlar tarbiyasida va ular ongida tinchlikka hurmat, insonparvarlik va hamdo'stlik kabi fazilatlarini mustahkamlash qanchalik muhim ekanini yana bir bor ko'rsatdi.

Ushbu masalada Chirchiq shahri mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i Otabek Shermetov quyidagi fikrlarni bildirdi: “O'zbekiston – 2030” strategiyasi va davlat dasturida belgilangan ustuvor vazifalarga muvofiq, Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati hamda harbiy salohiyatini yanada oshirish bo'yicha tizimli ishlar davom ettirilmoqda. Shu bilan birga aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tarbiyasi va targ'ibotini kuchaytirish, Vatan himoyachilarini tayyorlash va tarbiyalash hamda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik (*ChQBT*) tizimini takomillashtirish yo'nalishlarida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik tizimini yangi bosqichga olib chiqish” to'g'risidagi qaroriga muvofiq, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ChQBT fani nufuzini oshirish, shuningdek ushbu fan o'qituvchi-rahbarlarining faoliyatini muvofiqlashtirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Yangi tizimga muvofiq, **birinchidan**, umumta'lim maktablariga nomzodlarni saralab olish tartibiga asosan, oliy ta'lim tashkilotlari Harbiy ta'lim fakultetlarining chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarini, Qurolli Kuchlarning rezervi (*zaxira*)dagi oliy ma'lumotga ega bo'lgan oddiy askar, serjant, shuningdek ofitserlar tarkibiga mansub kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar ishga qabul qilinmoqda.

Ikkinchidan, ChQBT rahbarlarining harbiy malakasini vatanparvarlik yo'nalishida mudofaa vazirligi tizimida, pedagogik ko'nikmalarini milliy oliy ta'lim tizimida oshirish joriy etildi.

Uchinchidan, malaka oshirish davomida ChQBT rahbarlarini o'quv-mashg' harbiy yig'inlariga jalb etish, ularning pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlarni Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida o'tkazish, natijalari bo'yicha navbatdagi harbiy unvonni berish tartibi o'rnatildi.

To'rtinchidan, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ChQBT tizimining o'quv dastur va darsliklari ishlab chiqildi, shuningdek o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish masalalari bo'yicha soha vakillari bilan **respublika amaliy seminari**, davra suhbatlari va tajriba almashish uchrashuvlari muntazam o'tkazib borilmoqda.

Beshinchidan, ChQBT fani o'quv-moddiy bazasini takomillashtirish va barpo etish, sinf xonalarini bosqichma-bosqich zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlash ishlari olib borilmoqda.

Chirchiq shahri 13-umumta'lim maktabining ChQBT fani rahbari Sirojiddin Pardayev fikriga ko'ra: “Bugungi raqamlashtirilgan ta'lim maydonida ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanilishi ta'lim sifati va natijadorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. ChQBT fanini o'qitish jarayoniga raqamli simulyatsiya, virtual laboratoriyalar va interaktiv ta'lim platformalarini keng integratsiya qilish o'quvchilarda amaliy tafakkurni shakllantirish, nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtirish hamda o'quvni individuallashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu nuqtayi nazardan, ChQBT ta'limida zamonaviy o'quv jihozlari – VR/AR texnologiyalari, multimedia

vositalari, amaliy to'plamlar va trenajyorlar – darslarni jonlantiradi, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini, faol ishtiroki va samaradorligini oshiradi.

Ta'kidlash lozim, hozirgi global sharoitda – geosiyosiy ziddiyatlar, harbiy to'qnashuvlar va dinlararo nizolar avj olgan zamonda – vatanparvarlik tuyg'usi har bir fuqaro uchun zarur. Davlatimiz rahbarining quyidagi so'zlari bu yo'nalishdagi ishlarning naqadar dolzarb ekanini yaqqol tasdiqlaydi: **“Bugun zamonning o'zi har bir fuqarodan vatanparvar bo'lishni taqozo etmoqda. Bunda, ayniqsa harbiy xizmatchilar, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilari o'rnak bo'lishi kerak”**. Bu so'zlar yoshlarning harbiy-vatanparvarlik ruhini yanada yuksaltirish, ular ongida ona-yurtiga sodiqlik fazilatlarini yuksaltirish o'ta dolzarb vazifa ekanini belgilab bermoqda”.

Bu borada Urganch shahridagi Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyning ChQBT fani o'qituvchisi Baxtiyor Miskinov shunday deydi: “Mana shu vazifalarni amalga oshirishda ChQBT tizimi faoliyati muhim o'rin tutadi. ChQBT fani – o'quvchilarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga, ularda fidoyilik, mas'uliyat va mafkuraviy barqarorlik g'oyalarini mustahkamlashga xizmat qiluvchi **keng qamrovli tarbiyaviy tizim**.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbari o'zida O'zbekistonga bo'lgan muhabbat va sadoqatni har bir xatti-harakatida namoyon etishi, o'z kasbiga bo'lgan vafodorligi, jonkuyarligi, harbiy o'quv-mashg'ulotlarni tizimli va sifatli tashkil etishi bilan nafaqat o'quvchilar, balki boshqa o'qituvchilar, ota-onalar va mahalla jamoatchiligi uchun ham ibratli namuna bo'lib xizmat qilishi maqsadga erishishda muhim omil hisoblanadi”.

Hammamizga ma'lumki, bugungi kunda dunyo yoshlari oldida ishsizlik, sifatli ta'limga teng imkoniyatlarning yetishmasligi, radikal g'oyalar ta'siri kabi qator global muammolar turibdi. Bu sharoitda har bir mamlakatning yosh avlodi bilimli, mas'uliyatli va fidoyi bo'lmas ekan, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish qiyin kechadi.

Bu masala yuzasidan Andijon viloyati Oltinko'l tumani 2-son Politeknikumi ChQBT fani rahbari Ulug'bek Rustambekov shunday ta'kidladi: “ChQBT fani ta'lim-tarbiyasi yoshlarda bu kabi muammolarga qarshi tura olish qobiliyatini, qat'iyatlilik, jamoaviy fikrlash va tinchlikni qadrlash tuyg'ularini shakllantirib, ularni zamonaviy jamiyatda faol fuqaro sifatida tarbiyalaydi.

Yosh avlodni O'zbekistonni himoyasiga tayyorlash yoshlarning ma'naviy barkamolligiga, mafkuraviy immunitetiga, fuqarolik mas'uliyatining oshishiga xizmat qiladi.

ChQBT rahbari o'z faoliyati davomida har tomonlama yetuk zamonaviy inson kapitalini yaratish, o'quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalash va to'g'ri kasb tanlash ko'nikmasini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga yoshlarning tafakkurini o'stirish, shaxsiy intizomi va uyushqoqligini kuchaytirish, milliy armiya, davlat xizmati hamda jamiyatning turli sohalariga uchun yetuk va ishonchli kadrlar tayyorlashda salmoqli hissa qo'shadi”.

Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, ChQBT fani rahbarlari o'z faoliyati orqali mamlakat xavfsizligini ta'minlash, mudofaa salohiyatini mustahkamlash hamda ma'naviy, jismoniy va intellektual jihatdan yuksak salohiyatga ega, yurtimiz taqdiriga befarq bo'lmagan shijoatli avlodni voyaga yetkazishda munosib hissa qo'shadi.

Shu bilan birga barqaror rivojlanish va kelajak muvaffaqiyatini ta'minlashda ta'lim muassasalari, oila hamda jamoatchilikning uzviy hamkorligi muhim o'rin tutadi. Shu bois mazkur tarbiya institutlarida amalga oshirilayotgan har bir o'quv darsi, tarbiyaviy tadbir va ijtimoiy loyiha Vatanga muhabbat va vatanparvarlik g'oyalari bilan uyg'unlikda tashkil etilishi zarur.

Abdurahim MAMAJANOV,
Barqaror rivojlanish markazi bo'lim boshlig'i,
Mudofaa vazirligi faxriysi

“Men g‘olib!”

TANKDAN OTILGAN SNARYAD

Qo‘shinlarda doimiy jangovar shaylikni ta‘minlash eng ustuvor masalalardan biri. Bunda harbiy xizmatchilar o‘rtasida o‘tkaziladigan turli musobaqalar muhim o‘rin tutadi, albatta. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimida “Men g‘olib!” shiori ostida o‘tkazilayotgan ko‘rik-tanlovlar ham shu maqsad yo‘lida xizmat qilmoqda.

Markaziy harbiy okrugning “Forish” tog‘ poligonida bir necha kun davomida “Men g‘olib!” shiori ostida tashkil etilgan “Eng ilg‘or tank guruhi” hamda “Eng ilg‘or jangovar guruh” ko‘rik-tanlovlari kim nimaga qodir, kim o‘z sohasining haqiqiy ustasi ekanini amalda isbotlash imkonini berdi. Sinovlar haqiqatan ham o‘ta murakkab. Bunda har bir harakat umumiy natijalarga ta‘sir qiladi. Shuning uchun ham jamoalar berilgan shartlar va vazifalarga jiddiy qarab, o‘zlarining bor mahorat va salohiyatlarini ishga solgan holda harakat olib bordi.

Ta‘kidlash kerakki, mazkur bahslar yil sayin o‘z ko‘lamini kengaytirib, ishtirokchilarning jismoniy, ruhiy va taktik tayyorgarlik darajalarini kompleks tarzda baholash imkonini berayotgani bilan ham ahamiyatli bo‘lmoqda. Joriy yilgi musobaqalar avvalgilardan tubdan farq qildi. Chunki bugun

– Qaysi ekipaj eng tezkor?
– Muhimi, yigitlar to‘siqlardan o‘ta olishi.

O‘quv joyi rahbarining qo‘l ishorasi bilan soat millari aylanishga tushdi. Dastlabki ekipaj og‘ir jangovar texnika – tankni boshqarishni boshladi. Aytgancha, bu shart ko‘rik-tanlovning eng muhim bosqichlaridan biri – yakka tartibdagi tank poygasi hisoblanadi. Unda qatnashchilar 4-6 kilometr masofani talafotlarsiz bosib o‘tishi kerak. Harakat davomida esa qiyin shartlar bajariladi: jangovar yo‘lakchalar, okoplar va otish maydonchalarida ekipaj a‘zolarining tezkorligi, boshqaruv, nishonga olish mahorati hamda vaziyatni to‘g‘ri baholash qobiliyati sinovdan o‘tadi. Ha, bu yerda eng munosiblar aniqlanadi.

– Tank boshqarish tashqaridan qaragandek oson emas, – deydi kichik serjant Ramazon Rahmonov. – Bu

bilimni o‘zlashtirsangiz, keyin uni amaliyotda sinovdan o‘tkazish ham kerak. Lekin u oddiy sinov emas-da. Eng qiyin vaziyatlarda qalb va aqlni birlashtirishni bilish shart. Bilasizmi, nega bunday deyaqman? Chunki ekipaj a‘zolari bir tanaga, ha, tana a‘zolariga aylanib ketsagina, berilgan vazifani kutilganidek ado etadi. Aksar hollarda bu jarayonlarda kemtiklik kuzatiladi. Ana shunda tankdan otilgan snaryad nishon markazini urolmaydi. Bugungi bahslar har birimizni yillar davomida egallagan bilimlarimizni baholab olish imkonini bermiqda. Safdoshlarimiz bilan birgalikda tajribalar almashib ham olyapmiz. Asosiysi, raqib jamoalar harakatini kuzatib, xulosa olyapmiz.

Ekipajlar aylana bo‘ylab o‘qdek uchib borardi. Ular to‘siqlarni matonat bilan yengib, o‘zining yuqori kasbiy tayyorgarlik darajasini ko‘rsatardi. Har bir jamoa tarkibidagi a‘zo bildirilgan ishonchni qalban his

qilib, topshiriqning mas‘uliyatini to‘lalgicha his qilardi. Yigitlarning hech biri bu jarayonda o‘zini chetga tortmasdi. Chunki bu yerda harbiylik sha‘ni va yana qo‘mondonlikning ishonchi turardi.

– Bugun biz – tank mutaxassislari maydonda raqibimiz, – deydi kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Dostonjon Sobirov. – Ammo har birimizning oliy maqsadimiz yagona uyimiz O‘zbekiston tinchligini ta‘minlash va xalqimiz farovonligini munosib himoya qilishdir. Shuning uchun o‘tkazilgan musobaqada yutqazish umumiy ruhiyatimizga hech ham zarba berolmaydi. Ammo tajribamizni yanada orttiradi. Safdoshlar bilan fikrlashib, yanada taktik harakatlarimizni boyitish yo‘llarini izlaymiz. Bilasizmi, ko‘rik-tanlovda berilgan shartlarning ahamiyati va ularni bajarishda ekipajning qo‘lga kiritgan natijalariga qarab, shuni aytish



bu maydonda kuch, aql va ilm birlashib, g‘oliblikka intildi. Har bir qatnashchi amalda “Men g‘olib bo‘laman!” deb topshiriqlarni ado etdi. Ham jismoniy, ham jangovar, ham jamoaviy ruh birlashdi.

Aslida bu sifatlarni o‘zlashtirish, ta‘bir joiz bo‘lsa, bir mushtga keltira olish uchun kishi tinimsiz izlangan va o‘zini yenga olgan bo‘lishi kerak. Shunda to‘siqlar o‘z zalvarini, haybatini yo‘qotadi. Munosiblar uchun shamolning qattiq esishi qiyinchilik keltirmaydi. Qisqasi, “Forish” poligoni yuqori quvvatga to‘lib-toshgan harbiy xizmatchilarning hayqirgan ovozi, g‘oliblik sari shaxt bilan tashlagan qadamlaridan har tomonga otilib tushgan tuproqlardan ko‘tarilgan chang-to‘zon ichida qoldi.

NISHONLAR OLOV ICHIDA QOLDI

Start chizig‘i. Saf tortgan tanklarning dvigatelidan chiqayotgan ko‘kimtir tutun. O‘tkir ko‘zlar poligon uzra kezib yuribdi. Hammada bir savol:

NISHONGA TEGDI (MI?)

mumkinki, milliy armiyamiz saflari yildan yilga bahodirlar bilan to'lib bormoqda. Boisi kurashlarda yangi chehralar, iqtidor egalari va chapdast azamatlar kashf etilyapti. Ular esa o'z harbiy qismlariga borib, keyingi jamoalarni ayni sohadagi bilimlarini yanada oshishi uchun tajribalarini o'rtoqlashadi.

Ekipaj to'siqlarni ortda qoldirib, otish nuqtasiga yetib keldi. Yigitlarni kuzatib turgan jamoadoshlari kiprik qoqmay, tank stvolidan snaryadni uzilishini kuta boshladi. Nishon masofasi olis bo'lgani uchun hammaning boshida turli savollar parmalaydi.

– Tegarmikan?!

– Bu endi ularning tayyorgarlik darajasining qanday o'tganiga bog'liq.

– Ehtimol, snaryad xato ketar...

Gursillagan tovush atrofni tutib ketdi. Zarb kuchi tuproqning jonini sug'urib olgandek edi. Stvol uchidan hamon tutin oqib tushayotgandi. Ko'zlar to'g'riga qadaldi. Nishon olov ichida qolgandi.

JISMONIY VA RUHIY TAYYORGARLIK – G'ALABANING ASOSIY OMILI

Bilasiz, jismoniy imkoniyat qancha yuqori bo'lsa, kishining o'ziga bo'lgan ishonchi shuncha yuqori bo'ladi. Ayniqsa, bu masalaga harbiy xizmatchilar jiddiy qaraydi. Ular xo'roz qichqirmay turib, chiniqishda muhim hisoblangan mashqlarni bajarishga kirishadi. Aslida jismoniy va ruhiy tayyorgarlik – g'alabaning asosiy omili. Xullas, ko'rik-tanlovning bu bosqichida qatnashchilarning ayni sifatleri sinovdan o'tdi.

Azamatlar bahslar doirasida jismoniy tayyorgarlik bo'yicha maxsus sinovlarni topshirdi: turnikda tortilish, 1 kilometr masofaga yugurish, tosh ko'tarish kabi bahodirlik namoyon bo'ladigan mashqlar, maxsus to'siqlar yo'lagidan tezkor o'tish, baland-past hududlarda harakatlanish, og'ir jihozlar bilan uzoq masofalarga marsh yurish kabi murakkab vazifalar ular tomonidan bajarildi.

Qatnashchilar bu bosqichda nafaqat jismoniy, balki matonatlilik, ruhiy barqarorlik, mashaqqatli vaziyatlarda o'zini boshqara olish va jamoa bilan hamjihatlikda ishlash kabi muhim sifatleri ham amalda namoyon etishlari talab etildi.

Qolaversa, bahodirlar pichoqbozlik, oriyentir asosida yo'nalishni aniqlash, o'qotar qurollardan nishonlarni yakson etish va jangovar vaziyatni tezkor va aniq tahlil etishda ham sinovdan o'tdi.

G'OLIBLIKNI QAYSI EKIPAJ QO'LGA KIRITADI?

Tong sahar. Kuzning sovuq, ammo yoqimli shabadasi qalbga xotirjamlik baxsh etadi. Maydonning belgilangan o'quv joyida qatnashchilar saf tortib turibdi. Hammani bir savol o'rtaydi: G'oliblikni qaysi ekipaj qo'lga kiritadi? Boisi bu "Eng ilg'or tank guruhi" hamda "Eng ilg'or jangovar guruh" ko'rik-tanlovi so'nggi, Mudofaa vazirligi bosqichi. Tayinki, unda qo'shinlardagi ayni yo'nalishda xizmat olib borayotgan mutaxassislar o'zaro kurashyapti.



Demak, jarayonlar shunga yarasha shiddatli va qizg'in kechishi tayin. Ayniqsa, hal qiluvchi shart. Qisqasi, shuning uchun ham hammaning asabi taranglashgan. Nigohlar yanada o'tkir tortgan. Bu yerda har qanday xato umumiy natija balliga ta'sir qiladi.

Shunday qilib, yakuniy bosqich – guruh tarkibidagi vazifalarni bajarishga kirishdi. Ekipaj 5-7 kilometrli murakkab jangovar yo'nalishda topshiriqlarni ado etdi. Tank komandiri, mexanik-haydovchi, mo'ljalga oluvchi va o'qlovchilar o'zaro uyg'unlikda olg'a borardi. Bu bosqichda tezkor manyovrlar, nishonga aniq zarba berish, vaziyatga mos qaror qabul qilish va o'zaro muvofiqlashtirilgan harakatlar asosiy mezon sifatida namoyon bo'ldi.

Gapning indallosini aytganda, harbiy xizmatchilar shu vaqt ichida o'z kasbiy mahoratini chig'irididan yana bir bor o'tkazib oldi.



Markaziy harbiy okrug
matbuot xizmati
olgan surat

MUNOSIBLAR ANIQLANDI

Mudofaa vazirligi komissiyasi tomonidan e'lon qilingan yakuniy natijalarga ko'ra, ikkala – "Eng ilg'or tank guruhi" hamda "Eng ilg'or jangovar guruh" ko'rik-tanlovida ham yetakchilikni Markaziy harbiy okrug jamoasi qo'lga kiritdi:

1-o'rin – Markaziy harbiy okrug Samarqand garnizonidagi harbiy qism jamoasi;

2-o'rin – Markaziy harbiy okrug Jizzax garnizonidagi harbiy qism jamoasi;

3-o'rin – Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug (tank guruhi bo'yicha);

3-o'rin – Shimoli-g'arbiy harbiy okrug jamoasi (jangovar guruh bo'yicha);

G'olib va sovrindorlar diplom, tashakkurnoma va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Kapitan Shohrux SAIDOV,
"Vatanparvar"



Jayhun – 2025

HAMKORLIKDAGI O'QUV MASHG'ULOTLARI

Surxondaryo viloyatidagi O'zbekiston, Tojikiston va Afg'oniston chegara hududlari kesishgan nuqtada tashkil etilgan "Jayhun – 2025" maxsus-taktik qo'shma o'quvi, o'zbek-tojik chegarachilarining hamkorlikdagi amaliy harakatlari bilan boshlandi.

O'quv rejasiga ko'ra, shartli dushmanning qurolli bosqini aniqlangach, ogohlantiruvchi maxsus signal berildi va ikki davlat chegarachilari o'zaro ma'lumot almashib, hamkorlikda xavfni bartaraf etish choralarini ko'rishga kirishdi.

Jangovar shaylikka keltirilgan bo'linmalar shartli dushman joylashgan hududni qurshab olib, ularning ichkariga yorib kirishlarining oldini olish bo'yicha to'siq harakatlarini amalga oshirdi.

Uchuvchisiz uchish apparatlari orqali havo razvedkasi olib borilib, shartli dushmanning harakatlari to'liq nazorat ostiga olindi. Shartli dushmanning zararsizlantirish va hududga qulay o'rnatish olishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida jang maydoniga zirhli va yengil zirhlangan texnikalar jalb etilib, taktik jihatdan qulay marralar egallandi.

Ta'kidlash joizki, maxsus-taktik qo'shma o'quvlarning barcha jangovar harakatlari hamkorlikdagi qo'mondonlik punktida mas'ullar tomonidan monitorlar orqali real

vaqt rejimida kuzatib borildi.

O'quv mashg'uloti davomida hamkorlik rejalariga asosan, kuch tuzilmalarining bo'linmalari ham harakatga keltirilib, jangovar vertolyotlar va navbati bilan bugungi zamonaviy janglarda qo'llanilayotgan uchuvchisiz uchish apparatlari bo'linmalarni havodan qo'llab-quvvatlagan holda, shartli dushman aniqlangan nuqtalarga aviazarbalar berildi. Shundan so'ng shartli dushmanning ortga chekinayotgan kuchlari avvaldan o'z pozitsiyalarini egallagan jangovar katerlar hamda jangovar qurollar orqali o'qqa tutildi.



MUVAFFAQIYATLI YAKUNLANDI



O'zbek va tojik chegarachilari tomonidan hamkorlikda amalga oshirilgan sa'y-harakatlar natijasida shartli dushman batamom yo'q qilindi. E'tiborlisi, ushbu maxsus-taktik o'quv mashg'ulotlarida O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan quruqlikda, suvda va havoda harakatlanuvchi yengil zirhli texnikalar, katerlar hamda uchuvchisiz uchish apparatlari imkoniyatlaridan keng foydalanildi.

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondonining tashabbusi bilan bugungi kunda Markaziy Osiyo Respublikalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalari tobora rivojlanib bormoqda. Xususan, qo'shni tojikistonlik chegarachilar bilan o'tkazilgan maxsus-taktik o'quv mashg'ulotimizdan ko'zlangan asosiy maqsad o'zaro birdamlikni oshirish va davlat chegarasida

yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatar va tahdidlarni birgalikda bartaraf etishdan iborat, – deydi kapitan Husniddin Hakimov.

Maxsus-taktik qo'shma o'quvlari yakuni bo'yicha o'tkazilgan tadbirda ikki davlat chegarachilarining hamkorlikdagi harakatlari yuqori baholanib, ishtirokchilar munosib rag'batlantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari Ashula va raqs ansambli tomonidan ko'chma mobil madaniyat markazida namoyish etilgan konsert dasturi barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Albatta, o'tkazilayotgan bu kabi hamkorlikdagi o'quv mashg'ulotlari ikki davlat chegarachilarining kelgusida har qanday tahdidlarga qarshi birgalikda tura olish imkoniyatlarini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari



Islohotlar amalda

BYUDJET MABLAG'LARINING MAQSADLI SARFLANISHI MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLAYDI

Mamlakatimizda davlat moliyasi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri byudjet mablag'laridan samarali, maqsadli va shaffof foydalanishni ta'minlashdir. Chunki byudjet mablag'larining oqilona sarflanishi davlat moliyaviy barqarorligining muhim omillaridan sanaladi. Bu jarayonda korrupsiya xavfini kamaytirish esa byudjet siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Zero mablag'larning noqonuniy ishlatilishi va korrupsion huquqbuzarliklar davlat hamda jamiyat rivojiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi.

SHAFFOFLIK VA MAS'ULIYAT TALABI

Byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi davlat moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishning asosiy mezon hisoblanadi. Davlat byudjeti orqali ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilma, ijtimoiy himoya, mudofaa va boshqa muhim sohalarga mablag'lar yo'naltiriladi. Shu bois ajratilgan mablag'lar belgilangan maqsad doirasida ishlatilishi katta ahamiyatga ega.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, byudjet resurslaridan foydalanishda "kam xarajat bilan katta natija"ga erishish tamoyili resursni boshqarayotgan mansabdor shaxsning eng asosiy mezon hisoblanadi. Biroq amaliyotda ba'zan mablag'larning noto'g'ri taqsimlanishi, tender jarayonlarida shaffoflikning ta'minlanmasligi yoki manfaatdor shaxslar ta'siri tufayli korrupsion holatlar yuzaga kelmoqda. Bunday holatlar davlat mablag'larining samarasiz sarflanishiga, fuqarolar ishonchining pasayishiga va iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois byudjet mablag'larining maqsadli ishlatilishini o'rganish, bu borada korrupsiya xavfini bartaraf etish mexanizmlarini tahlil qilish hamda samarali choralar belgilash bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi deganda davlat byudjeti mablag'larini qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun ishlatish tushuniladi. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksiga muvofiq, har bir byudjet mablag'i belgilangan maqsadlar doirasida va chegaralarda sarflanishi shart. Byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishini nazorat qilishda ichki audit xizmatlari, davlat moliya nazorati hamda fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, byudjet mablag'larini maqsadli sarflash uchun rahbar va komandirlar quyidagi asosiy tamoyillarga – qonuniylik va tartibga, ochiqlik hamda shaffoflikka, moliyaviy intizomga, axborotning ochiqligi va jamoatchilik nazoratiga rioya qilishlari lozim. Chunki maqsadli sarflanish moliyaviy intizomning asosiy tamoyili bo'lib, davlat organlari, muassasalar va tashkilotlar faoliyatining shaffofligi va hisobdorligini ta'minlaydi. Mablag'lardan maqsadsiz foydalanish holatlari davlat audit organlari tomonidan aniqlanganda,

bu huquqbuzarlik sifatida baholanib, tegishli choralar ko'riladi.

KORRUPSION OMILLAR VA ULARNING TA'SIRI

Byudjet mablag'larini taqsimlash va sarflash jarayonidagi eng katta xavflardan biri bu korrupsiyadir. Korrupsiya nafaqat davlat mablag'larining samarasiz sarflanishiga, balki iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining pasayishiga ham sabab bo'ladi. **Xo'sh, korrupsion omillarga nimalar kiradi? Bular quyidagilardir:**

- davlat xaridlarida tender jarayonlarining soxtalashtirilishi;
- manfaatdor shaxslar ta'sirida qaror qabul qilish;
- hisobotlarning yolg'on yoki to'liq bo'lmagan holda taqdim etilishi;
- ichki audit va nazorat tizimlarining zaifligi.

Shuningdek, ayrim hollarda axborotning yopiqligi va jamoatchilik nazoratining past darajada ekani ham korrupsion muhit uchun zamin yaratadi. Bu holatlar davlat resurslaridan foydalanish samaradorligini keskin pasaytiradi.

Shunday ekan, byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlashda elektron hisobot tizimlari va jamoatchilik nazoratini keng joriy etish korrupsiya xavfini keskin pasaytiradi.

KORRUPSION HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH CHORALARI

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bir qator huquqiy va tashkiliy choralar ko'rilgan. Jumladan,

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonun, 2017-yilda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturi” hamda “Ochiq byudjet” axborot portali

faoliyati bu yo'nalishdagi muhim qadamlardandir.

Byudjet mablag'larining shaffof sarflanishini ta'minlash uchun quyidagi choralar muhim ahamiyatga ega:

1. Davlat xaridlarini elektron tizim orqali amalga oshirish.
2. Ichki va tashqi audit tizimlarini kuchaytirish.
3. Davlat xizmatchilari uchun etika va antikorrupsiya standartlarini joriy etish.
4. Fuqarolik jamiyati institutlari va OAVning nazoratini kuchaytirish.
5. Byudjet ma'lumotlarini ommaviy axborot vositalarida ochiq e'lon qilish.

Bu choralar davlat mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlab, korrupsion huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi davlat moliya tizimining barqarorligi va jamiyat ishonchini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu sohada korrupsiyaning oldini olish uchun qonunchilikni takomillashtirish, elektron nazorat tizimlarini keng joriy etish, mas'ul shaxslarning hisobdorligini oshirish va jamoatchilik ishtirokini ta'minlash zarur. Shaffoflik, javobgarlik va nazorat tamoyillariga asoslangan boshqaruv tizimi orqali davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa korrupsiyasiz, adolatli va iqtisodiy jihatdan barqaror davlat boshqaruvini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, davlat mablag'larining samarali boshqarilishi korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali vositalaridan biri bo'lib, har bir tashkilotda shaffof hisobot, raqamli nazorat tizimlari va mas'uliyatli boshqaruv madaniyatini shakllantirish zarur.

**Mudofaa vazirligi
nazorat-taftish boshqarmasi**

Turkiston jadidlari

“SADOYI FARG‘ONA” dan TURKISTON MUXTORIYATIGACHA

Tarixda shunday zotlar o‘tganki, ular to‘lqinli zamonlar girdobida ham e‘tiqodidan, vijdonidan, xalqiga bo‘lgan sadoqatidan qaytmagan. Shunday siymolardan biri – Turkiston jadidlik harakatining fidoyi farzandi, “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi asoschisi, Turkiston muxtoriyatining oziq-ovqat noziri, matonatli jadid ziyolisi Obidjon Mahmudov edi.



Uning hayoti bir insonning qismati emas, butun bir millatning uyg‘onish yo‘lida chekkan iztirobi va umidi timsolidir. U zamon zulmiga qarshi so‘z bilan, fikr bilan, fidokorlik bilan kurashdi. O‘z davrining ilg‘or g‘oyalarini hayotga tatbiq etish uchun jonfido qildi. “Obid Chatoq” deb atashgan, bu nom aslida uning bukilmash iroda va jasoratining belgisi edi. Chunki u bosh egmadi – na mustamlakachilarga, na zulmga, na qo‘rquvga.

Bugun biz Obidjon Mahmudov siymosida millat ravnaqi, erkin tafakkur va vatanparvarlikning o‘lmas timsolini ko‘ramiz. Uning xotirasi aytilganidek, tarix daftarida emas – xalq qalbining eng chuqur qatlarida bitilgan.

Obidjon Mahmudov 1871-yilda Qo‘qonda tug‘ilgan. Bu haqda atoqli olim Naim Karimov o‘zining “Farg‘ona jadidlarining sarvari” maqolasida ilmiy jihatdan ancha asosli fikrlarni ilgari surgan. Muallif ushbu maqolasida XX asrning 20-yillari oxiri 30-yillari avvalida O. Mahmudovning sog‘lig‘idan boxabar bo‘lib turgan shifokor G. Shaxanovich qo‘li bilan yozilgan ma‘lumotnomani keltirgan. Mana, rus tilida yozilgan o‘sha ma‘lumotnoma: “Дана сия зр-у Махмудову Абиджану, 71 года в том, что с 25-го ноября по 1-го июня болел обострением хронического эндокардита, находясь все время в тяжелом состоянии в постели...”

Ma‘lumotnomadan yaqqol ko‘rinib turibdiki, Obidjon Mahmudov 1871-yilda tug‘ilgan, (Naim Karimovning fikricha) hujjatdagi “71 года” “71-yil tug‘ilgan” degan ma‘noni anglatadi.

1897–1901-yillarda Peterburg tog‘-kon universitetida o‘qib, shu soha bo‘yicha yirik mutaxassis bo‘lib yetishadi. Qahramonimiz o‘qishni tamomlagach Qo‘qonga qaytib, neft konlarida ish boshlaydi. Biroq tez orada u Turkistonni ozod etmasdan turib, chinakam milliy iqtisodiy tizimni yo‘lga qo‘yib bo‘lmasligini tushunib yetadi. Bu og‘ir masalaning yechimini, eng avvalo, ta‘limda ko‘radi. Shu maqsadda u 1911-yilda Haydarbek mahallasida yangi usul maktabini ochadi. Obidjon iqtisodiy jihatdan ancha baquvvat shaxs bo‘lgani uchun o‘zi ochgan maktabni zamonaga mos tarzda jihozlaydi, turli xil o‘quv qurollarini sotib olib, maktabga tuhfa etadi. Bundan tashqari, u Qo‘qondagi boshqa yangi usul maktablarini ham iqtisodiy jihatdan uzluksiz qo‘llab-quvvatlab turadi.

1914-yilda Avstriya – Vengriya imperiyasining valiahd shahzodasi Franz Ferdinandning o‘ldirilishi bilan boshlanib ketgan Birinchi jahon urushi Obidjon Mahmudovning ong va tafakkurida katta evrilishlar yasadi. U murakkab davrning chigal jarayonlarini Turkiston xalqiga atroflicha tushuntirib berish, davr qo‘yayotgan og‘ir talablarni millatga teran anglatish maqsadida shu yilning o‘zida “Sadoyi Farg‘ona” gazetasiga asos soldi.

“Sadoyi Farg‘ona” gazetasining ilk soni 1914-yilning 1-aprelida chop etiladi. Unda Obidjon Mahmudov “Maslak va maqsad” nomli kirish maqolasida: “Ko‘p zamondan beri bu taraf Ho‘qandda musulmoncha bir gazetaning nashr etilishini orzu qilmoqda edik”, deb yozgan holda gazetaning

vazifasi millatga xizmat qilish ekanini, Turkiston xalqining kasali ham, dardi ham bir ekanini, o‘z navbatida, darmoni ham bir ekanini qayd etib, faqat ilmgina xalqni jaholatning qora ko‘lankasidan qutqarishi mumkinligini dadi ta’kidladi. Gazeta moddiy tarafdin to‘la ta‘minlanganini urg‘ulab, faqatgina zamondosh ziyolilar o‘z qalamlari bilan gazeta faoliyatiga yordam berib turishlarini iltimos qildi.

1917-yil 26-noyabrda o‘lka musulmonlari Qo‘qonda o‘zlarining favqulodda IV qurultoyiga to‘plandi. Ertasi 27-noyabr kuni kechasi qurultoy Turkiston muxtoriyat hukumatining tuzilganini e‘lon qildi. Obidjon Mahmudov muxtoriyat hukumatining oziq-ovqat noziri etib tayinlandi. Biroq oradan 72 kun o‘tib, muxtoriyatning bolsheviklar tomonidan vahshiylarcha bostirilishi ko‘plab ziyolilar singari Obidjon Mahmudovning ham hayotini ostin-ustun qilib yubordi.

Keyinchalik muhojir jadidlarning vakillaridan bo‘lmish Abdulvahob O‘qtoy o‘sha dahshatli kunlarni shunday xotirlagan: “O‘sha paytda Qo‘qon hukumati a‘zolari o‘q vizillashlari orasida Qo‘qonning eski shahar ko‘chalari ichiga tarqadilar. O‘sha payt hukumat a‘zolaridan Mustafo Cho‘qay, Mirodil, Abdurahmon O‘rozoy, Xiyoyatbek Yurg‘ulu (agronom, Ozarbayjon qishloq xo‘jaligi noziri) Qo‘qonda edilar. Nosirxon To‘ra Namanganda (Turkiston Muxtoriyatining maorif noziri), Salamon Hersfeld (Da‘vo vakili, avstraliyalik, yahudiy, milliy ozchiliklar noziri) Samarqandda, Ubaydullaxo‘ja Ashxobod-Samarqand yo‘lida, Obidjon (Mahmud) Buxoroda, Shoh Ahmadbey esa Qo‘qon qo‘rg‘oni ichida ekan, bolsheviklarning qo‘liga tushgan edilar”. Obidjon Mahmud Kavkazga safar qilib, u yerdan Qo‘qonga bug‘doy olib kelishni maqsad qilgan edi, biroq muxtoriyat qonga botirilgach, uning ta‘sischilaridan biri bo‘lgan Obidjon Mahmud ham qidiruvga beriladi va Buxoroda qo‘lga olinadi.

Tadqiqotchi olim Nodirbek Komilovning qayd etishicha, Obidjon Mahmudov ikki marotaba qamoqqa olingan. Dastlab u 1921-yilning noyabrida Turkistonda ingliz-yapon intervensiyasini tashkillash va “bosmachilar” bilan aloqa o‘rnatganlikda, noqonuniy ishlar bilan shug‘ullanganlikda, yashirin yig‘ilishlar uyushtirganlikda, “sovetlarga qarshi tizimli tashviqot ishlari olib borganlikda” ayblanib hibsga olingan. Ammo Obidjon Mahmudov o‘z ixtiyoridagi barcha mol-mulkalaridan voz kechish evaziga hibsdan ozod qilingan.

Undan keyingi qamoqqa olinishi 1926-yilda yuz berib, OGPU kollegiyasining qaroriga muvofiq, 5 yilga qamoq jazosiga hukm qilingan. Biroq biroz vaqtdan so‘ng (mol-mulkidan voz kechish evaziga) qamoqdan ozod etilgan.

Uzoq yillik ta‘qib va qamoq jazolari Obidjon Mahmudovning jismoniy va ruhiy holatiga katta salbiy ta‘sir ko‘rsatgani, shubhasiz. Shu bois ham u 1936-yil 21-noyabrda og‘ir kasallik natijasida vafot etadi. Uning vafoti sovet hokimiyatining milliy zulm va genosidi sabab Turkistondan hijrat qilishga majbur bo‘lgan muhojir jadidlarni ham chuqur qayg‘uga soldi.

Obidjon Mahmudning vafoti munosabati ila Mustafo Cho‘qay tomonidan **“Yosh Turkiston” jurnalining 1937-yili iyul-avgust sonlarida bir xotira e‘lon qilingan.** Ushbu yodnoma Obidjon Mahmudning hayoti va faoliyatiga doir hali bizga ma‘lum bo‘lmagan qirralar to‘g‘risida ma‘lumot beradi. Qayd etish joizki, ushbu noyob xotira bugungi kungacha Obidjon Mahmudning hayoti va faoliyati bilan shug‘ullanib keluvchi tadqiqotchilar nazaridan chetda qolgan.

Mustafo Cho‘qay xotira maqolasining kirish qismida: “Obidjon Mahmudning Toshkentda vafot etgani bildirilmakdadir. Bu xabar Obidjon Mahmudni tanig‘on butun turkistonliklar yuragida so‘ngsiz bir qayg‘u uyg‘otajakdir. Uni deyarli butun turkistonliklar tanirdi. Asli qo‘qonlik Obidjon Turkistonning har tarafida mashhur bir shaxsiyat edi. Ayniqsa, uning shuhrati 1917-yilgi inqilobdan keyin ko‘p kengaydi. Shaxsan men ham uning-la yaqindan do‘stlashmog‘im 1917-yili aprelinda to‘plang‘on Birinchi Turkiston inqilobchi ijtimoiy tashkilotlari qurultoyidan boshlandi. U bu qurultoyg‘a Qo‘qon vakili sifatida qatnashg‘on edi. Favqulodda muvaffaqiyatli chiqishlari va faoliyati uni tezgina jamoat xodimlarimizning oldi safiga chiqarib yubordi. Shu zamondan boshlab, Obidjon bizning butun viloyat ham o‘lka konferens va boshqa to‘planishlarimizg‘a saylana bordi. Qo‘qonning savdo va umuman, ish muhiti ham uni yaxshi tanir va unga yaxshi qiymat berar edi. Shuni unutmaslik kerakki, Qo‘qon Turkistonning paxtachilik markazi va eng boy shahri sanalar edi. Eng katta rus korxonalari va banklari, ularning Qo‘qondagi sho‘balari bo‘lur edi. Shuning uchun bu yerning savdo va ish doirasi ichiga kira bilmak, u qadar ham oson emas edi. Obidjon o‘zi nutqi kuchli odam ham emas edi. Unga bu doiralar amaliy ish belgisi, har turli mushkulotdan chiqish yo‘lini tez topa bilish qobiliyati uchun ko‘p qiymat berarlari edi. Qo‘qon aholisi uni ko‘p sevar va unga so‘ng darajada yuksak qiymat berar edi”, deb yozadi.

Mustafo Cho‘qay ushbu xotira maqolasida Obidjon Mahmudovning Turkiston Muxtoriyati va undan keyingi murakkab davrlardagi faoliyati xususida ham qimmatli ma‘lumotlarni keltirib o‘tgan: “Bolsheviklar bilan qurolli to‘qnashish bo‘lg‘on zamon Obidjon Qo‘qonda emas edi. Arzoq (oziq-ovqat) oluv uchun Qo‘qon milliy hukumati tarafidan Shimoliy Kafkaziya yuborilg‘on Obidjon Buxoroda to‘xtab qolg‘on edi. U yerda ham bo‘sh o‘tirmadi, umumiy harakat etuvimizni yo‘lg‘a qo‘yish uchun buxoroliklar bilan muzokara yuritdi. Amir Olimxon va uning ma‘murlari bizning Rusiyadan ayri mustaqil siyosat yurtimizni istamaslar va o‘zlari hech bir suvrat-la Rusiya va uning himoyasidan ayrilmoqni xohlamaslar edi... Shu Shimoliy Kafkaziya yuborilg‘on kundan, ya‘ni 1918-yili yanvar boshidan so‘ng men Obidjonni ko‘ra olmadim. Buning-la barobar men uzoqdan har zamon uning turmush va faoliyatini kuzatib keldim. Uni necha martalab qamadilar. Turkistondagi sovet siyosatining tubdan o‘zgarishi shart ekani haqida ochiq so‘ylag‘on bir necha

turkistonlikning biri ham shu Obidjon edi. Munavvarqori kabi Obidjonga ham qulayliq bilan mamlakat tashqarisiga chiqib ketish taklifi berilgan edi. Biroq u ham Vatanda qolishlikni tanladi...”

Bilamizki, Obidjon Mahmudga mustamlakachi ruslar tomonidan **“Obid Chatoq”** nomli haqoratimiz laqab berilgan. Mustafo Cho‘qay unga berilgan “Chatoq” laqabi aslida uning xarakteriga mutlaqo uyg‘un bo‘lmagan bir laqab ekanini, agar Obidjon o‘zida axloq nuqtayi nazaridan biror kamchilikni sezadigan bo‘lsa, uni darhol bartaraf etishga kirishadigan ziyoli kishi bo‘lganini, u o‘z millati uchun katta xizmatlar qilishga intilgani sabab rus bolsheviklari uchun “chatoq”liklar chiqarganini yozadi.

Jumladan, Mustafo Cho‘qay Muxtoriyat qonga botirilganidan keyin Qo‘qon shahri boshlig‘i etib tayinlangan Gurpich va Obidjon Mahmud o‘rtasida bo‘lib o‘tgan bahsni quyidagicha eslaydi: “Obidjon Qo‘qon baladiya raisligiga saylang‘on edi va uning bu yerdagi faoliyati so‘ng darajada samarali bo‘lg‘on edi. U shahar ta‘mir ishlarida eski shaharni yangi shahar bilan tenglash uchun ko‘p kurashdi. Uning shahar boshlig‘i sotsialist revolyutsioner Gurpich bilan bo‘lg‘on bir munoqashasini shaxsan o‘zim o‘tirib tinglag‘on edim. Ular ko‘pdan bir-biri ila yaqin tanish edilar. Muzokara yangi shaharda bir necha ko‘chaga tosh yotqizish ustida edi. Obidjon shahar boshlig‘ini to‘xtatdi va “Masalani umumiyat-la Qo‘qon shahrining ta‘mir va islohi ustida qo‘yish kerak. Eski shaharda tashlang‘on yo‘llar bo‘lmag‘oni kabi ko‘chalar ham yetarlik darajada yorug‘liq ham yo‘q. Shuning uchun bunday tuzatuv ishini eski shahardan boshlash kerak. Biz siz bilan eski do‘stlarmiz. Endi tortisha boshlasak, bir-birimizga teskari, hamda jiddiy qarama-qarshi bo‘lib qolamiz. Har turli ta‘mir va islohot ishi eski shahardan boshlanishi lozim”, dedi. Obidjonning uddaburonligini avvaldan bilgan Gurpich menga qarab kulib: **“Bu bekorga “Chatoq” deb atalmag‘on. Bu bilan tortishish qiyin. Chunki uni fikridan qaytarish hech mumkin emas”**, dedi. Obidjon haqiqatan ham shunday bir kishi edi. Uni rus ishchilari doirasi, ayniqsa soldatlar hech yoqtirmas edilar. Bu ham g‘oyatda tabiiy, anglashirliq bir narsa edi. Chunki Obidjon ularning Turkiston xalqi ustidagi mutlaq hokimiyatlariga mone bo‘lib turg‘on eng muhim to‘siq edi”.

Xotiradagi Obidjon Mahmudning ovoz toniga doir quyidagi ma‘lumot ham e‘tiborga molik: “Uning biroz xirillag‘on, bo‘g‘iq tovushi ilk eshitishda ko‘p qizib, so‘ylashib-tortishib charchag‘on bir tovush ta‘sirini berar edi”.

Xullas, Obidjon Mahmudovga sovet mustamlakachilari tomonidan “Obid Chatoq” deb laqab berilgani uning bosqinchilar oldida hech qachon bosh egmaydigan, qat‘iyatli va kurashchan xarakter egasi bo‘lganidan darak beradi. Aynan shu mustahkam pozitsiyasi tufayli u mustamlakachi kuchlar uchun “chatoq” shaxsga aylangan edi.

Muslimbek ALIJONOV,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti dotsenti

Etika

HARBIYNING SHA'NI MEZONLARI

O'zining pok nomini, hurmat-izzatini saqlab qolishga intilish sha'n tushunchasi orqali ifodalanadi. Sha'n – bu shaxsning qadr-qimmati, or-nomusi, rostgo'yligi, halolligi, samimiyligi, pok vijdoni, matonati, ma'naviy va axloqiy yuksakligi, o'z burchiga sadoqati bilan namoyon bo'ladigan axloqiy kategoriya. Bu xislat xalq ichida doim yuksak baholangan. O'zbek xalq maqollari va iboralarida or-nomus, qadr-qimmat xislatlari alohida tilga olinadi:

“Nomusni yoshlikdan asra”,
“Obro' isitar, uyat kuydirar”,
“Odam ochlikdan o'lmas, ordan o'lar...”

Harbiy xizmat jamiyatning eng mas'uliyatli va murakkab sohalaridan biri bo'lib, davlat va jamiyat xavfsizligini ta'minlash, Vatanni himoya qilishga qaratilgan faoliyatdir. Bu faoliyatda sha'n, burch, sadoqat tushunchalari eng asosiy axloqiy kategoriyalardan biri hisoblanadi.

HARBIY SHA'N hamma zamonlarda ham ofitserning eng muhim ma'naviy fazilati bo'lib kelgan. Zero ofitser – bu jamoatchilik oldida davlatning yuzi, armiyaning sha'ni, qudrati va ma'naviy qiyofasini namoyon etuvchi timsol. Ofitserning axloqiy qiyofasi, ma'naviy madaniyati, muomala odobi va intizomi orqali jamiyat armiyaga baho beradi, unga bo'lgan ishonchini shakllantiradi.

Harbiy sha'n ofitser shaxsiyatining yuksak axloqiylikini aks ettiradi; bu uning o'z qadr-qimmati, or-nomusi, harbiy burchini bajarishga shayligi; o'z kasbi, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga mansubligi, ona Vatanidan faxrlanishi, xatti-harakatlarining oliyjanoblighi, halolligi, adolatparvarligi, davlat qonunlarini hurmat qilishi, ularga rioya qilishi va hokazolarda namoyon bo'ladi.

Yusuf Xos Hojib aytadi:

“Lashkar boshlig'i, eng avvalo, uyat-andishali, or-nomusli bo'lishi kerak. Erkak kishi or-nomusini deb yovga otiladi, undan o'chini oladi. Chunki or-nomus tufayli yov lashkarini parokanda qiladi”.

Harbiy sha'n nafaqat harbiy xizmatchining shaxsiy qadr-qimmati, balki armiyaning ijtimoiy nufuzi, jamoadagi ishonch va intizom darajasiga ham bevosita ta'sir qiladi. Sha'n – armiyaning eng yuksak ma'naviy ne'mati. Sha'n tuyg'usi bilan harakatlanuvchi armiya yengilmas kuch bo'lib, davlat barqarorligining kafolatidir. Chinakam sha'n davlat manfaati va farovonligi yo'lida fidokorona, sidqidildan xizmat qilishda namoyon bo'ladi.

Tarixdan ma'lumki, G'azna yaqinidagi Parvon dashti jangida Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullar ustidan ajoyib g'alabani qo'lga kiritgan. Jang oldidan Jaloliddin lashkarboshilariga **“Bu savashda endi or-nomus ham yigitlik sha'ni tikilmish! Maydondan boshimiz egilib qochsak, bizni hech kim kechirmaydi!”** deb murojaat qilgan. Ushbu da'vat Sulton qo'shiniga beqiyos ruhiy kuch berib, shiddatli va shijoatli harakatlanishida va mo'g'ullar ustidan g'olib chiqishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.

HARBIY SHA'N tushunchasi muhim axloqiy qadriyat sifatida ko'p qirrali bo'lib, uni tor va keng ma'noda tushunish mumkin. Tor ma'noda, maxsus kiyim rusumi va farqlovchi belgilari bilan bog'liq bo'lsa, keng ma'noda, ofitserning axloqiy avtoriteti, unvoni, bo'linma sha'ni, qo'shin sha'ni, davlat sha'nini himoya qiluvchi axloqiy majburiyatni ifodalaydi. Egniga harbiy libos kiygan har bir harbiy xizmatchi buni unutishga axloqan haqli emas. Ofitser harbiycha salomlashishi, harbiy libos va farqlovchi belgilarni e'zozlashi, harbiy kiyim-bosh rusumidan faxrlanishi kerak.

Sha'nga ega ofitser:

- so'zi va amali bir bo'ladi;
- qonun va intizomga qat'iy rioya qiladi;
- o'z qo'l ostidagilariga ibrat bo'ladi;
- murakkab vaziyatlarda ham o'z burchini ado etadi;
- jamoat oldida so'zining qadrini saqlaydi.

HARBIY SHA'N – bu tarixiy an'analar, milliy g'urur, axloqiy poklik va zamonaviy intellektual madaniyatning uyg'un birlikdagi ifodasi. U jang maydonida hal qiluvchi kuch bo'lgani kabi tinchlik paytida ham harbiy xizmatchining umumiy madaniyati, mas'uliyati va kuchi sifatida namoyon bo'ladi. Harbiy sha'nni asrab-avaylash, uni kelgusi avlodlarga yetkazish – bu nafaqat armiyaning, balki butun millatning vazifasi.

Harbiy sha'n mezonlari:

1. **Qadr-qimmat** – harbiy xizmatchi o'z-o'zini hurmat qilishi, o'z huquqlarini anglashi va ularga mos xulq-atvorga ega bo'lishi lozim.
2. **Oliyjanoblilik** – bu insoniy fazilat, shaxsning yuqori darajada odobliligi, odamgarchiligi, boshqalar foydasiga shaxsiy manfaatlaridan voz kechish qobiliyati.
3. **Halollik va rostgo'ylik** – “ofitser so'zim” iborasi kuchli axloqiy mas'uliyat sanaladi. So'ziga va va'dasiga sodiq shaxsning sha'ni yuksak baholanadi. Halollik – insonning adolat bilan ish tutishi, xulqining to'g'riligi, so'zida qat'iyat va sadoqatini ifodalasa, rostgo'ylik haqiqatni gapirish, o'zi va o'zgalar qadr-qimmatini to'g'ri baholashida namoyon bo'ladi.

4. **Harbiy birodarlikka sodiqlik** – o'zaro ishonch, yordam, mas'uliyat, vijdonlilik va insofililikka asoslangan mustahkam do'stlik tamoyili.

5. **Harbiy burchga sodiqlik** – ofitserning sadoqati va fidoyiligi, o'z burchini vijdonan va qat'iyat bilan bajarishida namoyon bo'ladi. Burch tuyg'usi O'zbekistonni sevis, Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish, “Vatan va sha'n” shioriga amal qilish, qasamyodga sodiq bo'lish, Vatan himoyachilarining sha'ni va jasoratining ramzi sifatida jangovar bayroqni muqaddas bilish kabilarni o'z ichiga oladi.

Sha'n tuyg'usini rivojlantirish ofitserning amaliy faoliyati, mafkuraviy tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Bu ishning asosiy yo'nalishi sifatida g'oyaviy ishonch, o'z kasbiga mas'uliyatli munosabat, yuksak xulq-atvor, muomala madaniyatini tarbiyalashga e'tibor qaratish lozim. Sha'n tuyg'usini shakllantirishda oila, jamiyat, ta'lim muassasalari va xizmat muhitining ta'siri katta.

Sha'n tuyg'usini shakllantirish omillari:

- ma'naviy-mafkuraviy tarbiya;
- kasbiy tayyorgarlik;
- jamoadagi axloqiy muhit;
- oila va jamiyat ta'siri;
- shaxsning o'z-o'ziga talabchanligi.

Demak, harbiy sha'n – harbiy xizmatchining eng oliy ma'naviy fazilati bo'lib, armiyaning qiyofasi, jamoatchilik ishonchi va davlat xavfsizligi bilan bevosita bog'liq. Shu bois oliy harbiy ta'lim muassasalarida sha'n va harbiy etika masalalari o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanishi zamon talabidir.

M. NOMURATOVA,
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti dotsenti

O'zbek o'g'loni – mustaqillik posboni

MARD YOSHLAR QALQONDIR O'ZBEKISTONGA

Harbiy xizmat sharafligi, ammo insondan metin iroda, jismonan sog'lom, ma'nan yetuklik va o'ta kuchli mas'uliyat talab etadi. Bolaligidan egniga harbiy libos kiyishni orzu qilmagan yigit bo'lmasa kerak.

Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Umidjon Rasuljonov ham yurt himoyasini sharaf bilgan yigitlardan. Harbiy xizmatda, sportda, tarbiya va intizomda safdoshlariga o'rnak bo'lib kelayotgan Umidjon Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida dunyoga kelgan.

Umidjonda bolaligidan sportning qo'ljangi turiga qiziqish uyg'ongan. Buni vaqtida anglagan otasi Oxunjon aka Oltiariq tumanida joylashgan sport klubiga olib borgan va o'sha yerda tuman, shahar, viloyat hamda respublika miqyosida o'tkazilgan sport musobaqalarida ishtirok etib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritdi.

Ayni damda qo'ljangi bo'yicha 3 karra O'zbekiston chempioni, I darajali sport ustasi Umidjon Rasuljonov tengdoshlariga ham o'rnak bo'lib kelmoqda. U bilan suhbatlashganda nafaqat jismonan baquvvatligiga, qolaversa, kuchli ma'naviyat sohibi ekaniga ham guvohi bo'ldik.

– Yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar biz, yoshlar uchun har sohada imkoniyatlar

eshiklarini ochib bermoqda. Niyatim – mana shu imkoniyatlardan unumli foydalanib, Vatanimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tarish. Muddatli harbiy xizmat meni har tomonlama toblamoqda. Oldimga ulkan rejalarni maqsad qilib qo'yanman. Maqsadim sari hamisha dadil odimlayman va yurtimiz sharafiga munosib himoya qilaman, – deydi oddiy askar Umidjon Rasuljonov.

Darhaqiqat, shunday mard va jasur o'g'lonlari bor yurt tinch, osmoni musaffo, mustaqilligi abadiydir.

Maqsudjon IBODULLOYEV



Ogohlik – davr talabi

BIZ

GIYOHVANDLIKKA QARSHIMIZ!

Mintaqamiz, umuman, dunyo xavfsizligiga giyohvandlik solayotgan tahdidni hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Narkotik moddalarning g'ayriqonuniy aylanmasiga oid muammolar bugungi kunga qadar jamiki bashariyat yuzma-yuz kelayotgan xalqaro va nihoyatda jiddiy tahdidlardan biri sifatida qolmoqda.

Jahonning aksariyat mintaqalarida narkotik moddalarning xalqaro biznesi va ushbu ofat bilan bog'liq uyushgan jinoyatchilikning ko'lami tobora kengayib borayotgani kuzatilmoqda. Geroin, kokain yiliga taxminan 200 ming kishining yostig'ini quritmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'liga to'g'onoq bo'lmoqda. Giyohvand moddalarni noqonuniy yetishtirishning oldini olish maqsadida jahon hamjamiyati muqobil yo'llarni izlayapti.

Markaziy Osiyoda qaror topgan narkotik moddalarga doir vaziyat, qo'shni Afg'onistonda yetishtirilgan narkotik moddalar jahonning boshqa mamlakatlariga yetkazilishi uchun mintaqamiz hududi xalqaro narkouyushmalar tomonidan "tranzit yo'l" sifatida foydalanilayotgani, ularning bunday faoliyati tobora jadallashib borayotgani bilan tavsiflanmoqda. Ta'kidlab o'tmoq joizki, "tranzit yuk" sifatida olib o'tilayotgan ushbu moddalarning muayyan qismi mintaqaning o'zida qolib ketmoqda. Bu esa, o'z navbatida, mintaqada joylashgan




mamlakatlar aholisi narkotik va psixotrop moddalarning g'ayriqonuniy aylanmasi, tayyorlanishi, xarid qilinishi, saqlanishi va iste'mol qilishday o'ta og'ir jinoiy faoliyatga qo'l urishiga olib kelmoqda.

Yurtimizda narkotik moddalarning davlat hududiga g'ayriqonuniy yo'llar bilan olib kirilishiga yo'l qo'ymaslik, bunday yo'llarni fosh etib, bartaraf etish, narkotik

moddalar savdosiga aralashgan shaxslar faoliyatiga chek qo'yish, yoshlar orasida sohaga doir targ'ibot va profilaktik ishlar olib borish tadbirlari muayyan maqsadga qaratilgan tarzda uzluksiz amalga oshirilmoqda. Biroq muammo ham "mudrab" yotgani yo'q. Ogohlik – davr talabi.

Yoshlar orasida giyohvandlik va narkojinoyatlar tarqalishining oldini olish bo'yicha Mudofaa vazirligi tomonidan davra suhbatlari, targ'ibot va profilaktik tadbirlar tashkil etilmoqda. Bu kabi tadbirlar



harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari orasida narkotik va psixotrop moddalar iste'molining oldini olish narkojinoyatlar profilaktikasida muhim o'rin tutadi.

Vazirlik tomonidan barcha hududlarda "Biz giyohvandlikka qarshimiz!" shiori ostida targ'ibot tadbirlari tashkil etilmoqda. Mahalla, ta'lim muassasalarida harbiy texnika va o'qotar qurollar ko'rgazmalari hamda qo'ljangi usullari bo'yicha chiqishlar tashkil etildi.

**Polkovnik
Temur NARZULLAYEV,
Mudofaa vazirligi ChQBT va
YBID boshqarma boshlig'i**

Kelajagimiz egalari



O'RTA TA'LIM TIZIMI MUAMMOLARINI BARTARAF ETISH USULLARI

(“Qashqadaryo tajribasi modeli” misolida)

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida o'rta ta'lim tizimini takomillashtirish vazifasi davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Zamonaviy iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar va global raqobat sharoitida inson resurslari sifatini oshirish faqatgina barqaror va samarali tashkil etilgan ta'lim tizimi orqali amalga oshirilishi ijtimoiy zarurat sifatida belgilanmoqda. Shu bois maktabgacha va maktab ta'limi muassasalari oldida o'quv jarayonini modernizatsiya qilish, pedagogik innovatsiyalarni joriy etish va ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni bartaraf etish kabi dolzarb vazifalar bor.

Bugungi kunda amaldagi keng qamrovli islohotlarga qaramasdan, o'rta ta'lim tizimida o'z yechimini topmagan muammolar saqlanib qolmoqda. Tahlillarga ko'ra, o'quvchilarning ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyasining pasayishi, amaliy ko'nikmalarning mavjud emasligi yoki sustligi, xususan maktablardagi mavjud to'garaklar faoliyati samaradorligining pastligi, raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarining cheklangani kabi omillar ta'lim sifatini cheklovchi asosiy sabablar sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu holat, o'z navbatida, o'rta ta'lim tizimi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatda yoshlarni kasbga yo'naltirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda jamiyatda o'z o'rnini topishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilganini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan “O'zbekiston – 2030” strategiyasida maktabgacha va maktab ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida qator strategik vazifalar belgilangan. Bular jumlasiga barcha o'rta ta'lim muassasalari huzurida kasb-hunarlariga o'rgatish kurslarini joriy etish, shuningdek yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish va ilmiy faoliyatini rag'batlantirish uchun intellektual o'yinlar hamda chet tillarni o'rganishga jalb etish orqali kamida 2 million nafar yoshning iqtidorini rivojlantirish kabilari kiradi.

Mazkur vazifalarning amalda bajarilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Harbiy aviatsiya instituti rahbari boshchiligidagi tuzilgan ishchi guruh tarkibi tomonidan Qarshi shahridagi

51 ta umumiy o'rta ta'lim maktabining o'quv, ta'lim-tarbiya jarayoni chuqur o'rganildi. Jumladan, texnologiya, axborot texnologiyasi va musiqa fanlarining o'qitilish holati, fan dasturlari, o'quv rejalari, o'quv moddiy bazasi, darslik hamda o'quv adabiyotlar tahlilini o'rganib chiqildi, shuningdek maktab direktorlari va o'qituvchilari bilan suhbatlar olib borildi. O'tkazilgan tahlilni o'rganishlar mavjud tizimli muammolarni har tomonlama baholash imkonini berdi.

Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida joylashgan o'rta ta'lim muassasalarida moddiy-texnika bazasining mutanosib rivojlanmagani kuzatildi. Xususan, kompyuter, texnologiya sinflari, laboratoriya jihozlari va yuqori sifatli internet tarmog'i bilan ta'minlash imkoniyatlarining ortda qolganini aniqlandi. Shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirishda muayyan ijobiy ishlar kuzatilsa-da, amaliyotda uslubiy yangilanishlar, ya'ni metodologik innovatsiyalar darajasining yetarli emasligi qayd etildi.

Maktabgacha va maktab ta'limi tizimida kuzatilayotgan tizimli muammolar hududiy xususiyatlarga ega bo'lib, ularni bartaraf etishda olib borilayotgan islohotlarni mahalliy sharoitdan kelib chiqib moslashtirilgan holda amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, **“Qashqadaryo tajribasi modeli”** o'quv muassasalaridagi mavjud muammolarni aniqlash, ularning kelib chiqish omillarini tahlil qilish va hududga xos yechim mexanizmlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'lib, mazkur modelni joriy etish orqali o'rta ta'lim tizimini rivojlantirishda samarali natijalarga erishish ko'zda tutilgan.

Maktab o'quvchilarining muhandislik, konstruktorlik, dasturchilik va musiqa san'ati kabi sohalarga qiziqishini rag'batlantirish bilan bir qatorda, ularda vatanparvarlik,

fidoyilik va mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirish maqsadida kompleks yondashuv talab etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Mudofaa vazirligi rahbariyati hamda Qashqadaryo viloyati hokimligining tashabbusi asosida O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Harbiy aviatsiya instituti tomonidan **“Qashqadaryo tajribasi modeli”** deb nomlangan innovatsion va o'quv-tarbiyaviy ahamiyatga ega loyiha ishlab chiqildi.

Loyiha o'quvchilarda texnik va ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish, hududning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kadrlar tayyorlash jarayonini moslashtirish, shuningdek ta'lim jarayonini harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bilan integratsiyalash orqali umumiy ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy platforma sifatida baholanadi. Qolaversa, loyiha zamonaviy bilimga ega, keng dunyoqarashli va raqobatbardosh kadrlar zaxirasini shakllantirish, o'quvchilarning milliy dasturchilik, muhandislik va konstruktorlik qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularni zamonaviy kasblarga yo'naltirishni maqsad qiladi. Shuningdek, **“Kelajak kasblari”** konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish, iqtidorli o'quvchilar kontingentini aniqlash, ularning salohiyatini baholash va elektron bazalar “raqamli jurnallar” orqali tizimli monitoring holatini yaratish loyihaning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Loyiha maqsadining muhim jihati global ilmiy-texnika taraqqiyoti va uning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda muhandislik va konstruktorlik sohalaridagi yangi yo'nalishlarni ixtirochilik salohiyatiga ega intellektual va ijodkor mutaxassislar bilan ta'minlashdan iborat. Shuningdek, loyiha doirasida zamonaviy o'quv dasturlarini ishlab

chiqish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish va kompetensiyaga asoslangan ta'lim modellarini ta'lim muassasalarida joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Qarshi shahridagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarni texnik bilimlarga yo'naltirish va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida zamonaviy to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha tajriba-sinov loyihasi amalga oshirilmoqda. Mazkur loyiha o'quvchilarning texnik kompetensiyalarini rivojlantirish va ularni yuqori texnologiyali sohalarga professional yo'naltirish uchun fundamental-strategik ahamiyatga ega bo'lib, loyiha doirasida o'quvchilarning muhandislik-texnik salohiyatini oshirishga qaratilgan quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha to'garaklar tashkil etildi.

Jumladan, texnologik va muhandislik yo'nalishlari bo'yicha **“Aviamodelizm”, “Raketamodelizm”, “Dron texnologiyalari”** (modellash), axborot texnologiyalari va dasturlash bo'yicha **“IT dasturlash”, “Kibersport”, “Robototexnika”, “3D loyihalashtirish”** (Axborot texnologiyalarini amaliy qo'llash kontekstida), ijodiy yo'nalish bo'yicha **“Musiqa”** (zamonaviy texnik vositalar bilan uyg'unlashtirilgan holda) kabi to'garaklar shular jumlasidan. Loyihaning sinov maydonchalari sifatida Qarshi shahridagi alohida o'rta ta'lim muassasalari tanlab olingan bo'lib, undagi **akademik va metodologik yondashuv** quyidagi muddatlarda aprobat siyadan o'tkazildi, xususan 2023/2024-o'quv yilida Qarshi shahridagi 1-ixtisoslashtirilgan maktab bazasida dastlabki aprobat siya (tajribadan o'tkazish) amalga oshirildi. 2024/2025-o'quv yilida esa tajribaning kelgusi bosqichi Qarshi shahridagi **23-sonli, 9-sonli, Qarshi tumanidagi 52-sonli “Jasorat maktabi”** kabi umumta'lim muassasalarida joriy etildi.

Ikki yillik monitoring natijalari loyihaning samaradorlik ko'rsatkichini 20 foizdan 53 foizgacha sezilarli darajada oshirganini ko'rsatdi. Bu natija texnologiya, muhandislik va dron mutaxassisliklari kabi yuqori texnologik yo'nalishlarga qiziquvchi o'quvchilarning salmog'i keskin ko'paygani bilan izohlanadi. Bu natija





loyihaning ta'limiy maqsadlariga erishishdagi yuqori potensialini va texnik-kasbiy yo'naltirishdagi metodologik asoslanganini ko'rsatadi.

Institut negizida o'quvchi-yoshlar uchun bepul o'quv to'garaklar tashkil etildi. To'garak ishtirokchilari respublika miqyosida yoshlar o'rtasidagi musobaqalarda sovrinli natijalarga erishib, loyihaning muvaffaqiyatini namoyon etdi.

Tajriba-sinov loyihasini Qarshi shahrining boshqa ta'lim muassasalariga joriy etish ko'lamini kengaytirish maqsadida **2025-yil 7-oktabr kuni** Harbiy aviatsiya institutida Qashqadaryo viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bilan ikki tomonlama hamkorlik memorandumini imzolandi. Memorandum Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi hamda O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Harbiy aviatsiya instituti o'rtasida yoshlarning yuksak kelajagini ta'minlash va kafolatlash bo'yicha strategik o'zaro kelishuv o'rnatilishini belgilab berdi. Hamkorlik doirasida yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish, intellektual salohiyatini oshirish, ijodiy va ilmiy faoliyatini rag'batlantirish, shuningdek vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

Memorandumga muvofiq, ta'lim sifatini oshirish maqsadida kelgusida tashkiliy va o'quv ishlarini amalga oshirish tadbirlari ko'zda tutilgan. Bunda Qarshi shahridagi **50 dan ortiq** umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktabda, shuningdek namunaviy loyiha sifatida tumanlardagi **"Jasorat maktabi"**da yuqorida keltirilgan dastur asosida dars mashg'ulotlarini tashkil qilish nazarda tutilgan. Bunda tegishli fanlarning o'quv dasturlariga **15 foiz** hajmda maqsadli o'zgartirishlar kiritiladi. Zamonaviy to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilib, ularning rahbarlari sifatida texnologiya va axborot texnologiyalari fanlari o'qituvchilari tanlab olinishi va ularning malakasini oshirish institut bazasida tashkil etilgan **maxsus o'quv kurslari** orqali amalga oshirilishi belgilangan. Umumiy maqsad esa ushbu **kompleks chora-tadbirlar** orqali ta'lim jarayonining sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash va o'quvchilarning texnik-muhandislik kompetensiyalarini rivojlantirishdan iboratdir.

Tajriba-sinov loyihasining Qarshi shahridagi mavjud maktablarning barchasida davom ettirilishini ta'minlash maqsadida institut bazasida shahardagi **51 ta** umumta'lim maktabining barcha texnologiya va informatika fani o'qituvchilari uchun ikki bosqichli qayta tayyorlov kurslari tashkil etildi. Bu chora-tadbir loyihaning institutsional qamrovini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Dastlabki, **birinchi bosqichda 22 ta** maktabning texnologiya va informatika yo'nalishlari bo'yicha o'qituvchilari (*jami 44 nafar mutaxassis*) uchun aviamodelizm, raketamodelizm, uchuvchisiz uchish apparatlari (*dronlar*), 3D loyihalashtirish, kibersport, robototexnika va musiqa kabi yo'nalishlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tashkil etildi. Ushbu mashg'ulotlar natijasida



o'qituvchilarning malakasi oshirildi va ularga tegishli sertifikatlar topshirildi.

Qayta tayyorlashning **ikkinchi bosqichi** joriy yilning 1-dekabriga qadar amalga oshirilib, bunda Qarshi shahridagi qolgan **29 ta** maktabning mazkur yo'nalishlar bo'yicha o'qituvchilar tarkibi uchun tegishli o'quv mashg'ulotlari tashkil etildi. Ushbu tajriba-sinovning nafaqat Qarshi shahrida, balki viloyat miqyosida ommalashtirilishi (*tizimlashtirilishi*) yosh avlod tarbiyasida va ularni kasbga maqsadli yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ijtimoiy-ta'limiy chora-tadbirlar yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlarining oldini olish bo'yicha samarali himoya mexanizmlari bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bu strategik maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalarni (tadbirlarni) amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

birinchidan, institutning mavjud ilmiy va texnik salohiyatidan foydalangan holda tajribali mutaxassislardan iborat ishchi guruhini shakllantirish lozim. Ushbu guruh a'zolari o'z soha yo'nalishlari bo'yicha umumta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan texnologiya, informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarining malakasini oshirish yuzasidan **bir oylik** maxsus kurslarni tashkil etishi zarur;

ikkinchidan, maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi orqali maktablarda to'garaklarni tashkil etish uchun ajratilgan o'quv sinflarini (*xonalarini*) zarur jihozlar va o'quv anjomlari bilan ta'minlash choralari ko'rish;

uchinchidan, maktab direktorlari tomonidan to'garaklar uchun maxsus sinf xonalarining ajratilishi va to'garak qatnashchilarining tarkibiy ro'yxatini (*kontingentini*) shakllantirish va ta'minlanishdan iborat;

to'rtinchidan, maktab direktorlari o'z vakolatlari doirasida tegishli fan dasturlariga maqsadli o'zgartirishlar kiritish bo'yicha zarur choralarni amalga oshirishlari lozim;

beshinchidan, Harbiy aviatsiya instituti koordinator (*muvofiglashtiruvchi*) sifatida to'garaklar faoliyatini boshqaradi, master-klass mashg'ulotlarining o'tilishiga, dasturiy ta'minotning joriy etilishiga hamda musobaqa va tanlovlarning tashkil etilishiga rahbarlik qiladi.

Yuqorida belgilangan maqsadlarning amalga oshirilishi keng qamrovli yo'nalishlarni rivojlantirish ishlariga jadal tus beradi. Masalan, texnologik yo'nalishlar (*aviamodelizm, raketamodelizm, uchuvchisiz uchish apparatlari/dronlar*),

axborot texnologiyalari yo'nalishlari (*3D loyihalashtirish, kibersport, robototexnika*), ijodiy yo'nalish (*musiqa: milliy, baxshichilik, estrada*) va sport yo'nalishlari (*oriyentirlash, shaxmat-shashka, badminton, voleybol, regbi, armiya qo'ljangi, jangovar sambo va dzyudo, pichoq uloqtirish, krossfit*) kabilarni sanab o'tish mumkin. Buning natijasida o'quvchilarning zamonaviy to'garaklarga bo'lgan qiziqishining ortishi hamda o'z hayotini foydali kasblar bilan bog'lovchi iqtidorli maktab o'quvchilari safining kengayishiga olib keladi. Bu sohaga o'quvchilarni qiziqitirish va rag'batlantirish maqsadida mudofaa vaziri sovrini va viloyat hokimi sovrini uchun tanlovlar tashkil etilishi loyihaning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Bu tanlovlar asosan, robototexnika (*konstruktorlik*), kibersport, aviamodelizm, raketamodelizm, dron mutaxassisligi, 3D loyihalashtirish

va musiqa yo'nalishlarida o'tkazilib, iqtidorli ishtirokchilarni munosib taqdirlash loyihaning muvaffaqiyatini kafolatlaydi.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash mumkinki, o'tkazilgan tahlil natijalari texnologiya, informatika, musiqa va sport yo'nalishidagi to'garaklar o'quvchilarda ijodiy, texnik va jismoniy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilgan ishlarning tahlili shunga ishora qiladiki, metodologik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan to'garaklar ta'lim sifatini sezilarli darajada yuksaltiradi, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirib, ularni zamonaviy kasbiy faoliyatga maqsadli tayyorlaydi. Qashqadaryo tajribasi o'rta ta'lim tizimidagi qator muammolarni hal etishda samarali yondashuv ekanini amaliy ko'rsatdi.

Aytish joizki, texnologiya, informatika, musiqa va sport to'garaklari orqali o'quvchilarda amaliy ko'nikmalar, ijodiy fikrlash qobiliyati hamda sog'lom turmush tarzi shakllanmoqda. Ushbu tajribani mamlakat miqyosida keng joriy etish umumiy ta'lim sifatini fundamental darajada oshirish uchun strategik ahamiyatga egadir.

Polkovnik A. XAMRAYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy xavfsizlik va mudofaa
universitetining Harbiy aviatsiya
institut boshlig'i, dotsent



Sadoqat va rag'bat

Davlat mukofotlari fuqarolarni ularning mamlakat mustaqilligini mustahkamlashga, tinchlik va barqarorlikni saqlashga, mamlakatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ilmiy, intellektual, ma'naviy salohiyatini hamda mudofaa qudratini oshirishga qo'shgan hissasi, davlat va xalq oldidagi faoliyatning ijtimoiy, xayriya, gumanitar hamda boshqa sohalaridagi xizmatlari uchun rag'batlantirishning oliy shaklidir.

Davlat mukofotlarini ta'sis etish

Davlat mukofotlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan ta'sis etiladi. Davlat mukofotlari to'g'risidagi nizomlar va davlat mukofotlarining tavsiflari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mukofotlarining rasmiy nomlari davlat tilida belgilanadi.

Davlat mukofotlarining turlari

O'zbekiston Qahramoni unvoni;
O'zbekiston Respublikasining faxriy unvonlari;
O'zbekiston Respublikasining ordenlari;
O'zbekiston Respublikasining medallari;
O'zbekiston Respublikasining faxriy yorlig'i.

O'zbekiston Respublikasining ordenlari

“Mustaqillik” ordeni;
“Amir Temur” ordeni;
“Jaloliddin Manguberdi” ordeni;
“Buyuk xizmatlari uchun” ordeni;
“El-yurt hurmati” ordeni;
“Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni;
“Mehnat shuhrati” ordeni;
“Faxriy murabbiy” ordeni;
I va II darajali “Sog'lom avlod uchun” ordeni;
I va II darajali “Shon-sharaf” ordeni;
“Do'stlik” ordeni;
I va II darajali “Salomatlik” ordeni;
“Mardlik” ordeni;
“Oliy darajali do'stlik” ordeni.

O'zbekiston Respublikasining oliy harbiy mukofoti – “Jaloliddin Manguberdi” ordeni hisoblanadi. “Jaloliddin Manguberdi” ordeni bilan mamlakat mustaqilligini, Vatan sarhadlarini, ona yurt tuprog'ini himoya qilishda hamda uni ko'z qorachig'iday asrashda yuksak harbiy mahorat, qahramonlik va jasorat namunalari ko'rsatgan, davlatimizning mudofaa qudratini mustahkamlashga ulkan hissa qo'shgan qo'mondonlik tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchilar

DAVLAT MUKOFOTLARI
BILAN TAQDIRLASH TALABLARI

mukofotlanadi. Ushbu yo'nalishda xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlasak, **Fransiyaning eng yuqori harbiy mukofotlaridan biri “Faxriy Legion” ordeni** hamda **Rossiyaning eng oliy harbiy mukofoti Rossiya Federatsiyasi Qahramoni unvoni** hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining medallari

“Jasorat” medali;
“Sodiq xizmatlari uchun” medali;
“Sog'lom turmush” medali;
“Kelajak bunyodkori” medali;
“Shuhrat” medali.

Mudofaa vazirligi **harbiy xizmatchilari** harbiy burchni bajarishda namoyon qilgan mardlik va jasorat, davlatning mudofaa salohiyatini mustahkamlashga munosib hissa qo'shgani, jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlikda a'lo ko'rsatkichlarga erishgani, yangi turdagi jangovar texnikani mukammal o'zlashtirgani, qo'shinlarni mohirona boshqargani hamda Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchilari ilm va texnikani rivojlantirish, davlatning mudofaa salohiyatini mustahkamlash, davlat, jamoat va ijodiy faoliyat sohasida qo'shgan hissasi uchun **davlat mukofotlari bilan taqdirlanishi mumkin.**

Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchi hamda Qurolli Kuchlar xizmatchilarini davlat mukofotlari bilan taqdirlashga taqdim qilish va ularga mukofot turini belgilashda ularning **davlat oldidagi xizmatining darajasi va ahamiyati hisobga olinadi.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan “Harbiy xizmatchilar, xodimlar, ishchi va xizmatchilar nomzodini davlat mukofotlari bilan taqdirlash uchun taqdim etish tartibi to'g'risida”gi nizom talablariga muvofiq, **harbiy xizmatchilarni (xodimlarni) davlat mukofotlari bilan taqdirlash** to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinadi.

Harbiy xizmatchi hamda Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchilari nomzodini davlat mukofotlari bilan taqdirlash uchun taqdim etishda davlat mukofotining turi **nomzodning ko'rsatgan qahramonligi, mardligi, jasorati va erishgan yutuqlarining darajasiga qarab belgilanadi**, shuningdek davlat mukofoti bilan taqdirlash uchun **adolatlilik, oshkoralik**, faqat alohida shaxsiy xizmatlari va yutuqlari uchun tamoyillari asosida ularning qahramonligi, mardligi va xizmat faoliyati davomida erishgan yutuqlarini rag'batlantirish maqsadida taqdim etiladi.

Davlat mukofotlari bilan taqdirlash uchun taqdim etishda harbiy xizmatchi hamda Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchilarining ko'rsatgan xizmatlari **davlat mukofoti turi mavqeyiga mos kelishi lozim.**

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrdagi qarori bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risida”gi nizomi talablariga muvofiq, vazirlik markaziy apparatida, harbiy qismlarda (*muassasalarda*) tuziladigan attestatsiya komissiyalari ushbu bo'linmalardan davlat mukofotlari bilan taqdirlash uchun taqdim etilayotgan nomzodlarni ko'rib chiqib, **mukofotlashga loyiqligi to'g'risida qaror qabul qiladi.**

O'zbekiston Respublikasi davlat manfaatlarini himoya qilish, jangovar xizmat va navbatchilikni o'tashda, o'quvlarda namoyon qilgan mardlik hamda jasorati, shuningdek hayot uchun xavfli, tabiiy (*texnogen*) ofatlar vaqtida va boshqa vaziyatlarda odamlarning hayotini saqlash bilan bog'liq bo'lgan sharoitlarda sodir etgan dovyurakligi va shijoati uchun alohida harbiy xizmatchilarni davlat mukofotlari bilan taqdirlash to'g'risidagi tavsiyanomalar **jasorat yoki mardlik namunalari ko'rsatilgan vaqtdan bir oydan kechiktirmay rasmiylashtiriladi.**

Tegishli attestatsiya komissiyasida nomzodlarni davlat mukofotlari bilan taqdirlash uchun ko'rib chiqib, ijobiy qaror qabul qilingandan so'ng harbiy qism komandirlari (*muassasa boshliqlari*) yuqori turuvchi kadr organlariga bo'ysunuv tartibida **hujjatlarni taqdim qiladi.**

Davlat mukofotlariga **birinchi marta** taqdim qilinganida haqiqiy harbiy xizmatda **kamida besh yil** xizmat o'tagan harbiy xizmatchilar tarkibidan nomzodlarni saralashni amalga oshirish **tavsiya etiladi.**

Navbatdagi davlat mukofotiga taqdim qilish qoidaga ko'ra, avvalgi davlat mukofoti berilgan vaqtdan **kamida uch yil o'tib, amalga oshiriladi.** Alohida qahramonlik, mardlik, jasurlik va dovyuraklikni namoyon etgan harbiy xizmatchi hamda Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchilari **bundan mustasno.**

Mudofaa vazirligi **harbiy xizmatchi hamda Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchilarini** davlat mukofotlari bilan taqdirlash to'g'risidagi ma'lumotlar **yakuniy qaror qabul qilengunga qadar oshkor qilinmaydi.**

Mukofotlangan **harbiy ishchi va xizmatchilar** mukofot topshirilgunga qadar halok bo'lgan (*vafot etgan*) yoki halok bo'lgandan (*vafot etgandan*) so'ng davlat mukofoti bilan taqdirlangan hollarda O'zbekiston Respublikasining orden, medallari va taqdirlash to'g'risidagi hujjatlari mukofotlanuvchining **yaqin qarindoshlaridan biriga** uni taqib yurish huquqi berilmagan holda topshiriladi.

Orden, medal, faxriy unvonga doir ko'krak nishonini noqonuniy ravishda taqib yurish, xarid qilish, sotish, almashish yoki o'zga tarzda haq evaziga bировga berish qonun hujjatlarida belgilangan **javobgarlikka tortilishga sabab bo'ladi.**

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, davlat mukofoti bilan taqdirlangan harbiy xizmatchi hamda Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchilari el-yurt va mustaqillik g'oyalariga sadoqat, harbiy burchni so'zsiz bajarish hamda vatanparvarlik tuyg'ularining barqaror bo'lishi, shuningdek kufusida milliy armiyamiz nufuzini oshirishda munosib o'rin tutadi. Shu bilan birga davlat mukofoti bilan taqdirlangan harbiy xizmatchilar o'z jamoasining mavqeyi va motivatsiyasini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Podpolkovnik
Alisher JUMANOV,
Mudofaa vazirligi
Kadrlar bosh boshqarmasi
harbiy unvon berish va taqdirlash bo'limi boshlig'i

Dolzarb mavzu



UMRBOQIY ZARAR MANBAI

Qimor o'yinlariga bo'lgan ishtiyoq jinoyatchilikning ko'payishiga, ijtimoiy axloqning parchalanishiga olib kelmoqda. Har bir inson dunyoga kelar ekan, yaxshi hayot kechirishni va jamiyatda foydali shaxs bo'lib, o'z o'rnini topishni xohlaydi. Hayot yo'lida turli qiyinchiliklardan o'tishga to'g'ri keladi, zero qiyinchiliksiz orzu-maqсадlarga erishib bo'lmaydi. Afsuski, hamma ham halol mehnat orqali pul topmaydi. Keyingi vaqtlarda oson pul topish ilinjida o'zini turli yo'llarga urib ko'rayotgan insonlar soni ko'paymoqda, ya'ni har xil "bukmeyker"lik kompaniyalari va shu kabi tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar bilan o'z oilasini boqayotgan insonlar soni tobora ortmoqda. Buning oxiri ayanchli yakunlanmoqda.

Qimor turli qiymatga ega bo'lgan buyum yoki pulni yutib olish maqsadida tasodifiy hodisa uchun tavakkal ravishda dov tikish. Qimor o'yinlari yirik xalqaro tijoriy faoliyat hisoblanib, 2009-yilda qonuniy qimor bozorining umumiy qiymati taxminan 335 milliard dollarni tashkil etgan. Mesopotamiyada eng qadimgi olti qirrali o'yin donalari miloddan avvalgi 3000-yillarga borib taqaladi. Ammo ular undan bir necha ming yil oldin paydo bo'lgan astragallar asosida yaratilgan. Xitoyda miloddan avvalgi birinchi mingyillikda qimorxonalar keng tarqalgan bo'lib, hayvonlar jangiga garov o'ynash odatiy hol bo'lgan. Lotto o'yinlari va dominolar Xitoyda X asrdayoq paydo bo'lgan. Shuningdek, dastlabki kazino Ridotto 1638-yilda Italiyaning Venetsiya shahrida o'z faoliyatini boshlagan. Tez boyish istagi va oson foyda umidi ilinjida odamlar ushbu tuzoqqa tushib qolmoqda. Tekin mahsulot qopqonda bo'ladi. Hozirda ijtimoiy tarmoqlarda tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni reklama qilish ommaviy tarzda avj olgan. Instagram, Telegram kabi tarmoqlarda blogerlar tomonidan jamiyatimiz uchun zararli bo'lgan ushbu virtual qimor o'yinlarining reklamasi insonlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, yaqin kunlarda mashhur insonlarning ovoz va yuz qismidan foydalangan holda sun'iy intellekt orqali ularning roziligisiz virtual qimor o'yinlarini reklama qilish holati ro'y bermiqda. Qimor o'yinlariga bo'sh vaqtni noto'g'ri sarflash, stress yoki zerikish oqibatida ham qaram bo'lib qolish mumkin.

Samarqand viloyatida aka-uka onlayn qimorga mukkasidan ketgan o'rtancha o'g'ilni bu yo'ldan qaytarish maqsadida daraxtga bog'lab, kaltaklagani haqida eshitgandirsiz. Oqibatda og'ir tan jarohati olgan 29 yoshli yigit vafot etgan. Yana bir holat, huquqni muhofaza qiluvchi organda ishlovchi davlat xizmatchisi bilan kuzatilgan,

bu hodisada xodim qimor o'ynash uchun katta miqdorda qarz oladi va o'yinda barcha pullarni boy bergach, qarzlarni to'lay olmay, o'z joniga qasd qilgan. Bular aziyat chekkanlarning bir qismiga ham to'g'ri kelmaydi, bunga o'xshash holatlar yurtimizda ko'plab uchramoqda. Yuqorida keltirilgan misoldagi fuqarolarning ham ota-onasi, farzandlari, yor-birolarlari bor va kimlardir otasidan, aka-ukasidan, oila boshchisidan ayrilmoqda. Shuningdek, bunday nopok ishga qo'l urish moliyaviy inqirozga, inqiroz esa jinoyatga qo'l urishga sababchi bo'ladi. Eng achinarlisi, jamiyatimizda axloqiy inqiroz, ijtimoiy beqarorlik yuzaga keladi.

Qimorga qarshi kurashishda davlat siyosatining o'rni sezilarli darajada muhim ahamiyatga ega. Respublikamizda qimor o'yinlariga ko'plab cheklovlar qo'yilgan. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 16-avgustdagi qaroriga binoan, 2007-yil 1-sentabrdan boshlab, respublikada qimor o'yinlarini va tavakkalchilikka asoslangan turli o'yinlarni tashkil etish va o'tkazish taqiqlangan. Raqobat qo'mitasi tomonidan qimor




o'yinlarini va tavakkalchilikka asoslangan xizmatlarni omma orasida e'lon qiluvchi 30 ga yaqin sayt bloklangani haqida axborot berilgan. Shuningdek, "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksning 191-moddasiga ko'ra, qimor va tavakkalchilikka asoslangan turli o'yinlarda qonunga xilof ravishda ishtirok etgan shaxslar uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solinishi mumkin. Istiqbolli loyihalar milliy agentligi boshqarma boshlig'i Nodir Jo'rayevning aytishicha, bir yil davomida taxminiy hisobda qimor o'yinlariga O'zbekistondan 300 million dollardan 1 milliard dollargacha bo'lgan mablag' chet elga chiqib ketishi kuzatilgan. "Reklama to'g'risida"gi qonunning 46-moddasida qayd etilishicha, O'zbekistonda ko'plab turdagi qimor o'yinlari, telekommunikatsiya tarmoqlari hamda onlayn tashkil etiladigan qimor o'yinlarining reklamasi taqiqlangan. Qo'shimcha qilib aytganda, qimor o'yinlarini

o'ynash huquqiy tomonlama ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Xo'sh, bu holatlarning oldini olish uchun qanday yechimlar bor? Moliyaviy savodxonlik xususida, avvalo, ota-ona va maktabda boshlang'ich tushunchalarni berib borish yo'lga qo'yilishi lozim. Matbuot va ommaviy axborot vositalarida turli qimor o'yinlaridan saqlanish haqida ogohlantirish, shunga o'xshash qisqa tasvirli kinolar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Har doim o'zingizni va boshqalarni ogoh tuting. Bo'sh vaqtingizni foydali mashg'ulotlar – sport, izlanish, o'qish va ijod uchun sarflang.

Qimor o'yinlari insonni bir lahzalik hayajon va lazzat bilan aldab, asta-sekin og'ir oqibatlarga olib boradi. Bu o'yinlarda yutish emas, yo'qotish ehtimoli doimo ustun. Shuning uchun qimor vaqtincha rohat, ammo umrboqiy zarar manbai, desak, yanglishmaymiz. Har bir inson o'z hayotini, orzularini va kelajagini "tasodif" yoki "omad" qo'lga emas, balki mehnat, sabr va bilim poydevoriga qurishi kerak. Chunki haqiqiy yutuq oson kelgan boylikda emas, halol mehnat va intilish orqali qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatdadir. Jamiyatda sog'lom fikr, halol mehnat va to'g'ri qadriyatlarni targ'ib etish yoshlarni bu illatdan asrashning eng kuchli qurolidir. Har kim o'z hayoti uchun mas'uliyatni his etib, qimor va tavakkal o'yinlardan yiroq tursa, nafaqat o'zini, balki oilasini va butun jamiyatni salbiy oqibatlardan himoya qiladi.

Azizbek XUDOYBERDIYEV,
Toshkent davlat
yuridik universiteti
Xalqaro huquq va
qiyosiy huquqshunoslik
fakulteti talabasi



Sana

107 YILLIK SHONLI TARIX

Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan harbiy ta'limni takomillashtirish bo'yicha yangi tizim asosida tub islohotlar amalga oshirildi. Qurolli Kuchlar akademiyasi o'rniga yangi universitet tashkil etildi.



Yangi modelga ko'ra, Qurolli Kuchlar akademiyasi isloh qilinib, uning o'rnida O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tashkil etildi. Mazkur universitet tarkibida Quruqlikdagi qo'shinlar instituti (*Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti negizida*) tashkil etildi. Sobiq Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti 1918-yil 16-noyabrda Nijniy Novgorod shahrida piyoda qo'shinlari uchun komandirlar tayyorlash kursi bo'lib tashkil etilgan.

Bilim yurti 1941-yilning 15-noyabrida 2 535 nafar kursant va ofitser bilan Chirchiq shahriga ko'chirildi. Chirchiq shahridagi faoliyatining dastlabki kunlaridanoq shaxsiy tarkibning jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari tinimsiz o'tkazila boshlandi. Urush yillarida og'ir vaziyatni hisobga olib, ofitserlarni tayyorlash 4-6 oy mobaynida amalga oshirildi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida bilim yurti 35 marotaba bitiruvchilar chiqarib, 7 500 nafar ofitser kadr tayyorlab berdi. 1947-yili bilim yurtiga Toshkent bilim yurti nomi berildi. 1966-yilda bilim yurtiga oliy o'quv yurti maqomi berilib, o'quv muddati 4 yil qilib belgilandi va uning birinchi bitiruvchilari 1970-yilda ofitserlik hayotiga yo'llanma oldi.

Mamlakat mudofaa qobiliyatini oshirish maqsadida milliy armiyamizni malakali kadrlar bilan ta'minlash borasida 1992-1994-yillar mobaynida barcha harbiy ta'lim muassasalarining shtat tuzilmalari qayta ko'rib chiqildi. Mustaqillik yillarida Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan islohotlar natijasida Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti shtat

tuzilmasi takomillashtirildi va ko'p ixtisosli oliy harbiy ta'lim muassasasiga aylantirildi.

Sana munosabati bilan Chirchiq shahrida joylashgan "Kimyogarlar" madaniyat saroyida konsert dasturi tashkil etildi. Unda institut rahbariyati, hokimiyat vakillari, oliygohda ta'lim olgan bitiruvchi generallar, harbiy soha faxriylari, harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, yoshlar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar institutning shonli tarixiga to'xtalib, uning jangovar tayyorgarligi, temir intizomi va yildan yilga erishib kelayotgan salmoqli yutuqlarini alohida e'tirof etdi. Shuningdek, so'z olganlar Vatani mudofaasiga sadoqat bilan xizmat qilib kelayotgan harbiy xizmatchilarning matonatli mehnatini yuksak baholab, ularning Vatanga sadoqatini chin ma'noda qahramonlik namunasi sifatida ta'kidladi.

Darhaqiqat, ortda qolgan 107 yil mobaynida ushbu ta'lim dargohi turli davr va murakkab sharoitlarda mamlakatimiz xavfsizligini ta'minlashda, kursantlarga ta'lim berib, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda xizmat qilib kelmoqda. Tadbirda xizmat vazifasini sadoqat bilan bajarayotgan bir guruh harbiy xizmatchilar faxriy yorliq, esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Tadbirning badiiy qismida esa harbiy orkestr hamda taniqli san'atkorlar tomonidan ijro etilgan Vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlar hamda ko'rgazmali sahna ko'rinishlar ishtirokchilarda ko'tarinki ruh va g'urur uyg'otdi.

**Katta leytenant
Bekzod OBLOQULOV,
Quruqlikdagi qo'shinlar
instituti bo'lim boshlig'i**



Psixologiya

Zamonaviy qurolli mojarolar maydoni faqat texnika va qurollarning kurashi emas. Bu inson ongining, hissiyotlarining va irodasining ham jang maydonidir. Bu maydonda harbiy xizmatchi uchun har bir soniya, har bir qabul qilgan qarori hayotiy ahamiyat kasb etadi. Shunday vaziyatlarda "aql" va "hissiyot" o'rtasidagi kurash inson ongida kechadigan eng murakkab psixologik jarayon sanaladi. Harbiy psixolog uchun esa bu jarayonni tahlil qilish, boshqarish va to'g'ri yo'naltirish professional mahoratni talab etadi.

RUHIY BARQARORLIK – YASHIRIN ZIRH

Hozirgi kunda yetakchi xorijiy armiyalarning harbiy psixologlari tomonidan harbiy xizmatchilarning jangovar harakatlarda to'g'ri qaror qabul qilishiga xizmat qiladigan bir nechta psixologik usullardan unumli foydalanib kelinmoqda. Shulardan biri "KEYS" (*Case-study*) bo'lib, bu real yoki shartli muammoli vaziyatlar asosida askarning fikrlash, muqobil yechim topish va hissiyotlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi metodik yondashuvdir. U harbiy xizmatchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, vaziyatga nisbatan mustaqil munosabat shakllantiradi, hissiyotlarni boshqarish ko'nikmasini mustahkamlaydi. Harbiy psixolog "keys" usuli orqali harbiy xizmatchini avtomatik harakat qiluvchi ijrochidan fikrlay oladigan, vaziyatni baholaydigan, qarorining oqibati uchun javobgar jangchiga aylantiradi. Bu usulning mohiyati shundaki, harbiy xizmatchi vazifani bajarishda faqat buyruq bajaruvchi darajasidan chiqib, o'z oldidagi "Nega aynan shunday qilish kerak?" degan tahliliy savol qo'ya oladigan ruhiy va zehniy bosqichga ko'tariladi.

Misol uchun, oddiy buyruq: "Panohga o't!"

Tahliliy savol: "Nima uchun aynan shu yo'nalishdagi panoh xavfsizroq? Alternativ yo'llar qay darajada xatarli?"

Mana shu tafovut – ijro etuvchi va fikrlovchi jangchi o'rtasidagi chegara. Ana shu chegarani kengaytirib, har bir xizmatchini vaziyatni anglash, tahlil qilish va oqilona qaror qabul qilishga o'rgatish esa harbiy psixologning eng muhim vazifalaridan biridir.

Ekstremal sharoitda qaror qabul qilish psixologiyasi

Ekstremal holatda inson miyasi ikki tizimda ishlaydi:

amigdala (*hissiy markaz*) – tez, instinktiv, himoya reaksiyasini ishga soladi;

prefrontal korteks (*aql markazi*) – vaziyatni tahlil qiladi, mantiqiy qaror chiqaradi.

Bu ikki markaz o'rtasida soniyalar ichida "psixologik jang" kechadi.

Psixologik tayyorgarligi past askarda – hissiyotga berilib, noto'g'ri qaror chiqaradi.

Psixologik tayyor askar – amigdala signallarini nazorat ostida ushlab, aqliy fikrlash tizimini ishga soladi.

Misol uchun: dron signali eshitiladi. Biri yuguradi (*hissiyot*),



boshqasi tahlil qiladi (*aql*) – kim dronni kuzatadi, kim boshqalarni ogohlantiradi, kim joyini o'zgartiradi.

Ushbu daqiqada kim g'alaba qiladi? – Aqlmi yoki hissiyot? Bu – askarning ruhiy tayyorgarligiga bog'liq.

KEYS savollari orqali jamoaviy diagnostika

Vaziyat: jang maydonida dron zarbasi oqibatida aloqa uzildi. Guruhdagi bir askar vahimaga tushdi, boshqasi esa tashabbusni qo'lga oldi. Siz – guruh yetakchisiz.

Savollar:

1. Birinchi bo'lib nimani nazorat qilasiz – hissiy holatnimi yoki taktik vaziyatnimi?

2. Jamoada kimning psixologik tayyorgarligi yuqori, kimniki esa zaif?

3. Qanday psixologik usullar bilan jamoani tinchlantirasiz?

4. Agar sizning o'zingizda ham stress belgisi paydo bo'lsa, uni qanday boshqarasiz?

Tahlil: bu savollar orqali psixolog quyidagilarni aniqlaydi: askarning stressga bardoshlilik darajasi;

emotsional intellekt va empatiya ko'rsatkichlari;

liderlik roli va kommunikativ uyg'unligi;

jamoada "vahimaning kengayish" darajasi.

Yechim:

1. Jamoa yetakchisi avvalo, umumiy ruhiy fonni kuzatadi (*ko'z, nafas, ohang, tana holati orqali*).

2. Vahimadagi askarni faol rolga (*kuzatuv, signallarni tekshirish*) yo'naltiradi.

3. Buyruqlarni qisqa, ravon, barqaror ovozda takrorlaydi – bu verbal stabilizatsiya deyiladi.

4. Hissiyotlarni bostirmasdan, ularni harakatga yo'naltirish tamoyilidan foydalanadi.

Tezkor fikrlar va hissiy nazorat

Psixologiyada bu holatni ikki tizimi nazariyasi (*Dual System Theory*) deb yuritiladi:

1-tizimi (*hissiyotli tizim*) – tez, ammo impulsiv.

2-tizim (*aql tizimi*) – sekin, ammo puxta tahlilga asoslanadi.

Harbiy vaziyatda 1- va 2-tizim uyg'unlikda ishlamas, xavfli oqibatlar bo'lishi mumkin. Psixologik treninglarni o'tkazishdan maqsad – ushbu ikki tizim o'rtasida neyropsixologik muvozanatni shakllantirish hisoblanadi.

Misol uchun:

Harbiy xizmatchilar uchun "Bir soniya ichida fikr" mashqi: signal berilganda, askar 1 soniya ichida 3 xil variantda qarorini aytadi.

Bu tezkor fikrlash va hissiy nazoratni birgalikda o'stiradi.

Psixologik tavsiyalar va amaliy mashqlar

KEYS mashg'ulotlarini haftalik formatda ham o'tkazish mumkin:

Har bir mashg'ulot yakunida qisqa "psixologik debriefing" (*fikr almashish*) o'tkaziladi. Dron va real xavf simulyatsiyalari:

Askarning miyasida "real holatga o'xshash stress modeli"ni yaratadi, bu psixologik tayyorgarligini oshiradi.

Kognitiv moslashuv mashqlari:

5 soniya ichida 3 muqobil yechim topish mashqlari – qaror qabul qilish refleksini rivojlantiradi.

Emotsional regulyatsiya testlari:

"Hissiy termometr" usuli – harbiy o'z hislarini 1 dan 10 gacha baholaydi.

Psixologik yetakchilik mashg'ulotlari:

Har bir askar 5 daqiqa davomida kichik guruhni boshqaradi – bu "psixologik liderlik"ni sinovdan o'tkazadi.

Harbiy psixolog uchun metodik xulosa

Innovatsion KEYS savollar – bu nafaqat mashg'ulot, balki psixologik diagnostika vositasidir.

Bu orqali psixolog harbiy xizmatchining:

- stress holatini;
- emotsional muvozanatini;
- jamoaviy roldagi joyini aniqlaydi va mos reabilitatsiya yo'lini tanlaydi.

KEYS usulining yakuniy maqsadi – fikrlovchi, tahlilchi, barqaror va hissiy intellektual jihatdan yetuk askarni tayyorlash.

Xulosa qilib aytganda, harbiy psixologiyaning yangi bosqichi bu "inson ichidagi jang"ni yengish bosqichidir. Aql va hissiyot o'rtasidagi muvozanatni topgan askar jang maydonida ham, hayotda ham g'alaba qozonadi. Psixologik tayyorlangan askar bu faqat jangchi emas, balki o'z fikrini, sezgisini va emotsiyasini boshqara oladigan professional insondir.

**Katta leytenant
Visola BADALOVA,
Mudofaa vazirligi
maxsus avariya-tiklash
boshqarmasi harbiy psixologi**

E'tirof

FIDOYI VA JONKUYAR USTOZ

2012-yil 14-fevral kuni. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Toshkent oliy harbiy texnika bilim yurti ma'naviyat-ma'rifat markazining anjumanlar zali. Hamma hayajonda, chunki bilim yurtida o'tkazilayotgan navoiyxonlik va boburxonlik kechasiga O'zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malik va shogirdi podpolkovnik To'liqin Saydaliyev taklif etilgan. Adibni hammamiz yaxshi taniymiz, lekin rasman shogirdi deb e'tirof etilgan ofitser nima karomat ko'rsatar ekan, deb qiziqishimiz ortgandan ortdi.

Tadbir tashkilotchilari birdaniga yugur-yugur qilib qolishdi. Shundan bildikki, mehmonlar kelgan. Darvoqe, podpolkovnik To'liqin Saydaliyev vazirlik akademiyasida dotsent bo'lib, Tohir Malik bilan bir kafedrada faoliyat yuritir ekan. Tarbiyaviy bo'lim ofitserlari podpolkovnik Davron O'rinov, mayor Zuhra Murakayeva adib va fuqaro kiyimidagi bir notanish insonni boshlab kelib qolishdi. Ularni bilim yurti boshlig'i polkovnik Husniddin Mamatov kutib olib, prezidiumga o'tqazdi.

Tadbir boshlandi. Kelgan mehmonlarni bizga tanishtirishdi. Badiiy chiqishlardan so'ng so'z navbati Tohir Malikka berildi. Tohir aka buyuk shoirning she'rlarini chiroyli o'qib, mashhur baytlar ma'nosini chuqur tahlil etib, kursant va ofitserlarni lol qoldirdi. Orada O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Behzod Muhammadkarimov va yosh aktrisa "Layli va Majnun" dostonidan bir lavhani sahna namoyishi sifatida ko'rsatishdi. So'ngra so'z navbati podpolkovnik To'liqin Saydaliyevga berildi. Notiq Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy mahorati haqida ma'ruza qildi. Ma'ruzadan atoqli shoir va davlat arbobi lashkarboshi sifatida qaytadan kashf qildik, desam, mubolag'a bo'lmaydi.

Podpolkovnik To'liqin Saydaliyev nafaqat boburshunos, balki juda mahoratli harbiy ekspert va notiq ham ekan. U kishi ajdodimiz haqida so'zlar ekan, kerak joyda ovoz pardasini pasaytirib, kerak joyda ko'tarib, bizni ohanrabodek o'ziga mahliyo qilib qo'ydi. Notiqning berayotgan ma'lumotlari biz harbiylar uchun noyob bo'lib, dolzarb edi. Shu yerda bir narsani ta'kidlamochim, To'liqin aka yaxshigina aktyor ham ekan. Men shuncha ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etganman, lekin bunaqasini kamdan kam ko'rganman.

Tadbir so'ngida Tohir Malik so'z olib, shogirdi haqida chiroyli fikr bildirdi. "To'liqin akanglar o'zi boburshunos! Bundan besh yil avval Bobur ijodi bo'yicha ilmiy ish himoya qilgan", edi. Biz ofitser va kursantlar ma'ruza ta'siri ostida o'zimizni bobokalonimiz bilan birga qor bosgan dovondan o'tayotgandek, Qandahor jangida yovni qochishga majbur etgan navkardek, yoki Panipat jangida o't sochayotgan zambaraklardan hurkib ortga chekinayotgan fillarni ta'qib qilayotgan suvoriy kabi his qilar edik. O'sha tadbir mening ong-u shuurimga shunday ta'sir qildiki, bir necha kun o'sha taassurotlar asiri bo'ldim. O'sha vaqtda men kapitan edim va ishlab chiqarishni tashkil etish va texnikaviy nazorat kafedrasida o'qituvchi edim.

Qarangki, bir necha yillar o'tibdik, o'sha To'liqin aka bizning oliy o'quv yurtida paydo bo'lib qoldi. Bilsam, institut (*hozirda universitet*) boshlig'i polkovnik Mirzayusup Rustambayev To'liqin akani ishga taklif qilgan ekan. To'g'risini aytсам, u odam o'sha vaqtda zo'rg'a yurar edi, chunki insult kasalligini boshdan kechirgan ekan. Haqiqiy mehnat orqali kasallikni yenggan insonni o'shanda ko'rdim. Oradan bir muncha fursat o'tib To'liqin aka avvalgidek faol va serg'ayrat bo'lib, o'qituvchilar orasida eng ilg'origa aylandi.

Institutga kelishlari bilan O'zbekiston xalq yozuvchilari Xudoyberdi To'xtaboyev, Muhammad Ali, Tohir Malik, O'zbekiston xalq artistlari Yodgor Sa'diyev, To'ti Yusupova, Gavhar Zokirova, O'zbekiston fan arbobi Ibrohim G'ofurov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan aktyor Rustam Sagdullayev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Suvon Meliyev, atoqli davlat arbobi Ahmadjon Meliboyev, Omonulla Madayev va boshqalarni taklif etib, kursantlarga olam-olam quvonch tuhfa etgan.

U kishining, ayniqsa Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodini keng targ'ib qilish vazifasi bizga birlashtirilgandan keyin faoliyatlari o'zgacha mazmun kasb etdi. Boburshunos olim emasmi, Adiblar xiyobonida tashkil etgan tadbirlari juda yuqori saviyada o'tar edi. Bobokalonimiz haykali poyiga kimlarni chaqirmadi... O'zlari ma'ruza qilib charchamas, taklif etilgan mehmonlarni kutib olish va boshqa tashkiliy ishlar. "Ustoz, charchab qolmayapsizmi?" deb so'raganimda: "Hazrat bilan bog'liq har qanday tadbir menga kuch bag'ishlaydi!" derdi. Adiblar xiyobonidagi tadbirlar saviyasining yuqoriligi bilan ajralib turar edi.

Institut qo'mondonligi shaxsiy tarkibga Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyati, ijodi bilan bog'liq maqolalar yozinglar degan talabni qo'ydi. Hazrat bilan bog'liq maqolalar u kishidan vulqondek otola boshladi. Institut jamoasining aksariyati kunini To'liqin aka bilan boshlaydigan bo'lib qoldi. U kishi xonasida sira ham o'tirmas, balki maqolalarni tahrir qilar va boshqalarga aytib turib yozdirar edi. Men o'sha davrni To'liqin Saydaliyevning eng baxtli kunlari deb hisoblayman. Shuningdek, u kishining maqolalari "Xalq so'zi", "Народное слово", "Yangi O'zbekiston", "Правда Востока", "O'zbekiston ovozi", "Ma'rifat" kabi gazetalarda va "Jahon adabiyoti", "Tafakkur" kabi jurnallarda chop etilardi. U kishi nafaqat o'zini, balki boshqa ofitser hamda o'qituvchilarning maqolalarini tahrir qilishga beg'araz yordam berardi. Birinchi bo'lib bizning oliy o'quv yurtidan "Xalq so'zi" gazetasida aynan ustozning maqolalari chop etilgan.

Gapirsa gap ko'p, lekin men hanuzgacha tushunmayman, nima uchun u kishi bizdan ketib qoldi. Chunki u kishining turgan-bitgani

bilim va ma'naviyat-ma'rifat edi. Bizdan ketganlaridan keyin shunaqangi ijodlari jo'shib ketdiki, uch yil mobaynida beshita monografiya, darslik va ikkita o'quv qo'llanmasi nashrdan chiqdi. Ayniqsa, biz harbiylarga taalluqli hazrat Boburning harbiy mahoratlarni o'zida mujassam etgan o'zbek va rus tilidagi monografiyalari tahsinga loyiqdir. Aytishlaricha, bir paytlar bir inson u kishini monografiya yoza olmaydi, deb tanqid qilgan ekan. Shunga javoban ilmiy jihatdan yuksak talablarga javob beruvchi "Zahiriddin Muhammad Bobur: strategiya, taktika va harbiy san'at" nomli risolalari olam yuzini ko'rdi.

Mazkur monografiyalarda bobokalonimizning harbiy salohiyatlari atroflicha tahlil qilinib, To'liqin Saydaliyev yetuk harbiy ekspert sifatida mushohada yuritgan. Bobokalonimizning har bir jangini va jangovar yurishlarini sinchkovlik bilan o'rganib chiqqan. Mana shu risolalarda hazrat lashkarni qanday boshqargani va buning uchun qanday islohot o'tkazganini o'qib bildim. Jangovar yasolga yangilik kiritib, qo'shinni o'n ikki qo'lga bo'lganlarini ilmiy asoslab bergan. Mana shu yasol natijasida oz qo'shin bilan katta qo'shinni mag'lub etishni san'at darajasiga ko'targanini chiroyli tarzda ifodalab bergan. Bu esa hozirgi murakkab zamonamizda hali ham dolzarb bo'lib turibdi.

Xulosa o'rinda ishonitirib aytmoqchimanki, To'liqin Saydaliyevdek fidoyi ustozlar bor ekan, ularning beqiyos ilm xazinalari biz yoshlarga hali uzoq yillar ibrat bo'lib xizmat qiladi.

**Podpolkovnik
Dilmurod IRGASHEV,
Jamoat xavfsizligi
universiteti dotsenti,
iqtisodiyot fanlari
bo'yicha falsafa doktori**

3-dekabr – Xalqaro nogironlar kuni

BOLALARGA UMID ULASHDI

Chirchiq shahrida joylashgan harbiy qismlardan birida 3-dekabr – Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan "Hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmaydi" shiori ostida xayriya tadbiri o'tkazildi.

"Sen kuchlisan" nodavlat tashkiloti bilan hamkorlikda onkologik va onkogematologik kasalliklarga chalingan bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularga ijtimoiy-ma'naviy ko'mak ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan tadbirda harbiy xizmatchilar, askarlar, 20 nafar bemor bola va ularning ota-onalari ishtirok etdi. Dastlab mehmonlarni kutib olish marosimi o'tkazilib, bolalarga bayramona kayfiyat ulashish maqsadida harbiy xizmatchilar tomonidan Vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlar, badiiy chiqishlar namoyish etildi.

Tadbir doirasida bolalarning o'z qo'llari bilan tayyorlagan buyumlari hamda ular tomonidan chizilgan suratlar ko'rgazmasi namoyish etildi. Harbiy



xizmatchilar tomonidan suratlarning auktsion orqali xarid qilinishi xayriya tashabbusining amaliy qismiga aylandi. Shuningdek, Mudofaa vazirligi tomonidan bolalarga kitoblarni to'plami, rasm chizish uchun maxsus anjomlar va esdalik sovg'alar topshirildi. Bu esa ularning ruhiy holati va ijodiy intilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Shuningdek, bolalar va ularning ota-onalari uchun harbiy qism bo'ylab ekskursiya tashkil etildi. Mehmonlarga harbiy texnikalar va qurol-aslahalar ko'rsatilib, harbiy mutaxassislar tomonidan ularga oid batafsil ma'lumotlar berildi. Ekskursiya yakunida esa ishtirokchilar Zirhli texnikalarga texnik xizmat ko'rsatish zavodiga tashrif buyurib, harbiy xizmatchilarning kundalik faoliyati va ushbu jarayonlarda qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalar bilan yaqindan tanishdi.

Darhaqiqat, mazkur tadbir nafaqat bolalar va ularning ota-onalari uchun unutilmas kun bo'ldi, balki harbiy jamoaning mehr-oqibat, insonparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat borasidagi yuksak fazilatlarini yana bir bor namoyon etdi. Harbiy qism tomonidan bunday ezgu loyihalarining muntazam davom ettirilishi istiqbolida sog'lom, bag'rikeng va mehr-muruvvatli jamiyatni shakllantirishga munosib hissa qo'shadi.

O'z muxbirimiz

1-dekabr – Butunjahon OITSga qarshi kurash kuni

SALBIY ILLATLAR



ORTIDAGI O' LIM XAVFI

Inson hayotida eng katta boylik – bu uning salomatligi va ruhiy barqarorligi. Uni asrash, muhofaza qilish va boshqalarga sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish esa jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan. Ayniqsa, sog'liqni saqlash sohasi xodimlari, pedagoglar, ommaviy axborot vositalari va targ'ibotchilar zimmasiga bu borada ulkan mas'uliyat yuklanadi. Zero salomatlikka oid har bir tashviqot, har bir ma'ruza, har bir maqola inson hayotini saqlab qolish imkoniyatini beradi.

Bugungi kunda sog'lom turmush tarziga amal qilish nafaqat jismoniy faollik, to'g'ri ovqatlanish yoki shaxsiy gigiyena bilan cheklanmaydi. Bu atama bevosita insonning kundalik xulqi, odatlari, hatto u o'z hayotiga qanday qarashda ekani bilan bog'liq. Afsuski, ayrim fuqarolar, xususan yoshlar ongli yoki ongsiz ravishda ichkilikka o'rganmoqda, tamakibozlikka mukkasidan ketmoqda, gilyohvandlik moddalaridan foydalanmoqda, betartib jinsiy munosabatlarga berilmoqda. Natijada bularning barchasi inson hayotini izdan chiqarmoqda.

Bir qarashda bu odatlar avvaliga insonga biroz zavq beradigandek tuyuladi. Kimdir o'zini stressdan qutqarayotgandek his qiladi, kimdir "Menga hech narsa bo'lmaydi" deb o'ylaydi. Lekin bu ishonch yolg'on. Hayotdagi eng xavfli narsa salomatlikka nisbatan befarqlik va "Menga ta'sir qilmaydi" degan xato fikrdir.

Halokatga yetaklovchi zanjir

Tibbiyotda "sabab-oqibat zanjiri" degan tushuncha bor. Inson biror salbiy xatti-harakatni boshlashi bilan u tabiiy ravishda boshqa salbiy odatlarga yo'l ochadi. Masalan, ichkilikka berilgan odamning irodasi susayadi, fikrlashi zaiflashadi va bu uni boshqa xatarlarga boshlaydi. Gilyohvandlik esa organizmni qaramlikka tortuvchi eng kuchli omillardan biridir.

Bularning barchasi birlashib, insonni shunday nuqtaga yetkazadiki, u o'z hayoti ustidan nazoratni yo'qotadi. Tabiiyki, shunday sharoitda insonda turli xavfli kasalliklar, jumladan, OIV kabi og'ir virusli xastaliklarni yuqtirish ehtimoli bir necha barobar oshadi.

Dunyodagi voqelik

OIV – XXI asrning eng xavfli viruslaridan biri. Bugungi kunda jahon bo'yicha 48 milliondan



ortiq inson ushbu xastalik bilan yashamoqda. Ular orasida kattalar ham, yoshlar ham, hatto bolalar ham bor. Eng og'riqli tomoni shuki, kasallik ko'pincha darhol belgilari bilan namoyon bo'lmaydi.

Inson o'zini mutlaqo sog'lom deb his qilishi, kundalik hayotini davom ettirishi mumkin. Ammo u bilan birga virus ham organizmda yashirin tarzda davom etaveradi. OIVning eng xavfli jihati ham mana shunda – uzoq vaqt davomida sezilmasligi.

Bu yashirin davr 5–8 yil, ba'zan undan ham uzoq davom etishi mumkin. Aynan shu davrda odam virusni o'zi bilmagan holda boshqalarga yuqtirish ehtimoli eng yuqori bo'ladi.

Inson tanasiga qanday ta'sir qiladi?

OIV – faqat insonlarda uchraydigan, immunitet tizimini izdan chiqaradigan surunkali yuqumli kasallik. Virus organizmga kirgach, immun hujayralari ichida ko'payadi va

ularning faoliyatini buzadi.

Sog'lom immunitet yillar davomida virusning hujumini cheklab turadi. Ammo vaqt o'tishi bilan virus kuchayib boradi, immun hujayralari kamayadi va inson turli kasalliklar oldida himoyasiz qoladi. Shunda OIVning so'nggi bosqichi – OITS yuzaga keladi. Bu bosqich ko'pincha o'lim bilan yakunlanadi.

OIV yuqishining 3 asosiy yo'li

1. Parenteral yo'l

Teri va shilliq qavatlar butunligining buzilishi orqali:

- tekshirilmagan qon va qon mahsulotlari quyilganda;
- a'zolar yoki to'qimalar ko'chirib o'tkazilganda;
- nosteril tibbiy asboblardan foydalanilganda;
- umumiy ustara, tish cho'tkasi, manikyur-pedikyur asboblari ishlatilganda;
- tatu yoki kosmetik muolajalar vaqtida sterillik bo'lmaganda;
- bir martalik shprislar qayta ishlatilganda.

2. Jinsiy yo'l

Himoyalangan jinsiy aloqa orqali.

3. Vertikal yo'l

OIV musbat ona tomonidan bolaga:

- homiladorlik davrida;
- tug'uruq vaqtida;
- tug'ilgandan so'ng emizish orqali yuqadi.

OIV qaysi holatlarda yuqmaydi?

Ko'pchilikning OIV haqida noto'g'ri tasavvurlari mavjud. Virus:

- qo'l berib ko'rishishda, gaplashishda, quchoqlashishda;
- bir stol atrofida ovqatlanishda;
- umumiy hojatxona yoki hammomdan foydalanishda;
- havo orqali;
- chivin, bit, kana kabi qon so'ruvchi hasharotlar orqali yuqmaydi.

Bu ilmiy jihatdan isbotlangan.

Muhofaza choralari

OIV yuqtirish xavfini kamaytirish uchun:

- turmush o'rtog'iga sadoqatli bo'lish;
- shaxsiy gigiyena vositalarini boshqalar bilan bo'lishmaslik;
- tibbiy xizmatdan foydalanganda faqat sterillangan, bir martalik asboblardan foydalanish;
- zararli odatlardan voz kechish;
- muntazam tibbiy ko'rikdan o'tish zarur.

Inson o'z hayoti uchun o'zi mas'ul. Har bir salbiy xatti-harakatning ertami-kechmi oqibati bo'ladi. Shunday ekan, yomon illatlardan yiroq yuring, sog'lom turmush tarziga amal qiling. Zero sog'lom hayot bu nafaqat jismoniy, balki ma'naviy poklik va kelajak uchun mas'uliyatdir.

Tibbiy xizmat mayori

N. OMONOV,

Mudofaa vazirligi

Sanitariya-epidemiologiya

nazorati markazi

bo'linma boshlig'i

Harbiy qismda bir kun



YOSHILAR

HARBIY HAYOT BILAN

YUZLASHDI

Shimoli-g'arbiy harbiy okrugga qarashli Nukus garnizonidagi harbiy qism va Qoraqalpog'iston Respublikasi yoshlar ittifoqi hamkorligida yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'usini yanada kuchaytirish, ularning yurt taqdiriga daxldorlik hissini oshirish maqsadida "Harbiy qismda bir kun" ma'naviy-ma'rifiy tadbiri tashkil etildi.



Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bugungi navqiron avlod vakillari izlanuvchan, yangi g'oyalarga boy va g'ayrat-shijoatli. Ular hamisha bildirilgan ishonchni oqlash yo'lida dadil va ishonchli qadam tashlaydi. Buni xalqaro maydonda o'tkazilayotgan turli tanlov va musobaqalar misolida ham aytish mumkin. O'tkazilgan ushbu tadbirida ham ana shu kabi fikrlar bildirildi.

Harbiy qism bo'ylab tashkil etilgan ekskursiya dala-o'quv maydonidagi mashqlarga ulanib ketdi. Ahamiyatlisi, ushbu jarayonlarda harbiy xizmatchilar bilan birgalikda yoshlarning o'zlari ham vazifalarni bajarishga harakat qildi. To'g'ri, topshiriqlar murakkab. Ammo yuragida sharaflilik kasbga mehri bo'lakcha yoshlar o'zlarining imkoniyatlarini amalda ko'rsatishga astoydil intildi.

Ha, jamiyatdagi eng faol, tashabbuskor qatlam vakillari yoshlardir. O'z taqdiriga befarq bo'lmagan har qanday davlat borki, ertangi avlod uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning bor imkoniyat va salohiyatlarini ro'yobga chiqarishga intiladi. Boshqa sohalar qatori milliy armiyamiz rivojini ta'minlaydigan kuch, uning kelajagi ham aynan navqiron avlod hisoblanadi. Ayni shu jihatdan yoshlarimiz har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda.

Tadbir yakunida faol ishtirok etgan yoshlar okrug qo'mondonligi, Nukus harbiy prokuraturasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi kengashi Yoshlar ittifoqi kengashi tomonidan esdalik sovg'alar va faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

Ehtirom

QATAG'ON QURBONLARI

XOTIRASI UNUTILMAYDI



Ma'lumki, chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosatini kuchaytirgan bir davrda ma'rifatparvar ziyolilarimiz yurtning taraqqiyotiga intilishi, ilmga chanqoq yoshlarning kelajagini o'ylab, jadidlik harakatini boshlab berdi. Ammo millatni uyg'otishga qaratilgan bu ezgu g'oyalar podsho hukumatining qatag'on siyosatini keltirib chiqardi. Natijada ko'plab oydinlarimiz zolim tuzum qurboniga aylandi.

Mana shu qahramonlarning porloq xotirasiga hurmat bajo keltirish, ular amalga oshirgan ezgu ishlarni qalblarda abadiy saqlash maqsadida Mudofaa vazirligiga qarashli qo'mondonlik tomonidan "Inson - aziz, xotira - muqaddas!" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.



Toshkent shahridagi "Qatag'on qurbonlari xotirasi" davlat muzeyining anjumanlar zalida bo'lib o'tgan tadbirida muzey rahbariyati, Respublika harbiy sudi vakillari, harbiy xizmatchilar hamda keng jamoatchilik ishtirok etdi.

Tadbirida ma'ruzachilar Turkiston o'lkasida jadidlik harakatining shakllanishi, uning g'oyaviy-mafkuraviy mazmuni va millat taraqqiyotida tutgan o'rni haqida batafsil ma'ruza qildi.

Harbiy xizmatchilar tomonidan



XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida yurtimiz ravnaqi uchun kurashgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Maryam Sultonmurodova kabi ma'rifat yulduzlari hayoti va jasoratiga bag'ishlangan sahna ko'rinishlari namoyish etildi. Sahnada jonlantirilgan qahramonlarning taqdiri, jasoratli so'zi va el dardi bilan yongan qalb iztirobi esa albatta zalda o'tirganlarni befarq qoldirmadi.



Shuningdek, qo'mondonlik harbiy orkestri tomonidan ijro etilgan vatanparvarlik ruhida kuy-qo'shiqlar tadbirga yanada ko'tarinkilik bag'ishladi.

Tadbir nihoyasida harbiy xizmatchilar uchun "Shahidlar xotirasi" maydoni va "Qatag'on qurbonlari xotirasi" davlat muzeyiga ekskursiya tashkil etildi. Bu orqali ishtirokchilar ozodlikka intilgan, yurt uchun jonfido etgan ajdodlar ruhi bilan yana bir bor yuzma-yuz uchrashgandek bo'ldilar.

TOQQQ matbuot xizmati

Sana

“VATANPARVAR” TASHKILOTI 34 YOSHDA

23-noyabr – O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti tashkil etilgan kun.



Ushbu sana munosabati bilan “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashida tantanali tadbir tashkil etildi. Videoanjuman shaklida o‘tgan tantanali marosimda “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi apparati, tashkilot huzuridagi muassasalar va joylardan hududiy kengashlar xodimlari hamda tashkilot tizimida uzoq yillar davomida ishlagan mehnat faxriylari ishtirok etdi.

Tadbir boshida yig‘ilganlarga tashkilotning 34 yilligi munosabati bilan tayyorlangan videorolik namoyish etildi.

So‘ngra tashkilot markaziy kengashi raisi Husan Botirov tashkilot tizimida faoliyat yuritayotgan barcha xodimlarni qutladi. O‘z nutqida u “Vatanparvar” tashkiloti 34 yillik faoliyati davomida mamlakatimizning tinchlik-osoyishtaligi ta‘minlanishida va iqtisodiy taraqqiy etishiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shganligi, jumladan, tashkilot har yili minglab fuqarolarni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan turli texnik kasblarga tayyorlayotgani hamda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalab, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirib kelayotganini bildirdi.

Nutqi davomida H. Botirov bir qator misollarga to‘xtalib o‘tdi. Jumladan, yil boshidan “Vatanparvarlik – oliy maqsadim!” konseptual g‘oyasi ostida tashkilot tomonidan hamkor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda jami 5 mingga yaqin ommaviy harbiy-vatanparvarlik tadbirlari tashkil etilib, ularda 400 mingdan ortiq yosh qamrab olingan. Ayniqsa, yoshlar

ongida “Vatanparvar” tashkiloti faoliyati to‘g‘risida tasavvurini shakllantirishga qaratilgan “Vatanparvar” tashkiloti – mening tanlovim!” shiori ostida o‘tkazilgan “Ochiq eshiklar kunlari”, “Uch avlod uchrashuvi”, “Biz – vatanparvarlarmiz!”, “Mard askar – yoshlarga namuna” kabi tadbirlar yoshlarda ijobiy taassurot qoldirib, ularning tashkilotga xayrixohligi oshishiga erishilgan.

2024-yilda MDH, Osiyo va jahonda o‘tkazilgan sport musobaqalarida sportchilarimiz Vatan sharafiga munosib himoya qilib, 21 ta oltin, 25 ta kumush va 25 ta bronza medaliga sazovor bo‘lgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich joriy yilning o‘n bir oyida 31 ta oltin, 36 ta kumush va 32 ta bronza medalini tashkil etmoqda.

2025-yilning boshidan hozirga qadar “Vatanparvar” tashkiloti o‘quv muassasalaridagi avtomototransport haydovchilarini tayyorlash kurslarida turli toifalarda 75 mingga yaqin fuqaro o‘qitildi. Ushbu sa‘y-harakatlarni amalga oshirishda Qashqadaryo, Namangan va Xorazm viloyati kengashlari yetakchilik qilmoqda.

Yuqoridagi faktlar, o‘z navbatida, tashkilotning o‘z taraqqiyoti yo‘lida ildam odimlab borayotganidan darak beradi.

Tadbir davomida respublikaning turli hududlaridan so‘zga chiqqan “Vatanparvar” tashkiloti xodimlari tizimdagi barcha hamkasblarini qutlug‘ sana bilan muborakbod etib, ularning kelgusidagi ishlarida muvaffaqiyat tiladi.

Islahot

O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti Qashqadaryo viloyati kengashi tasarrufidagi G‘uzor tumani o‘quv sport-texnika klubining belgilangan standartlarga muvofiq bunyod etilgan o‘quv avtodromi foydalanishga topshirildi.

NAVBATDAGI AVTODROM FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

Tantanali marosimda “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi, Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrugi va tuman hokimligi rahbariyatlari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Tadbirida so‘zga chiqqan “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov tashkilotning 34 yilligi nishonlanayotgan ayni kunlarda mazkur inshootning topshirilishi alohida ahamiyatga ega ekanini, haydovchilik kasbiga azaldan ishtiyoqi baland g‘uzorliklar endilikda har tomonlama zamonaviy talablarga mos ravishda qurib bitkazilgan avtodromdan foydalanish imkoniyatiga to‘liq ega bo‘lganini ta’kidladi.

G‘uzor tumani hokimi Bekzod Suyunov o‘z nutqida haydovchilik kasbini o‘rganayotgan fuqarolar ushbu avtodromda barcha toifalar bo‘yicha sifatli amaliy ta’lim olishi mumkinligini va tuman hokimligi ham ushbu sohada aholini qo‘llab-quvvatlashda doimo tayyor ekanini bildirdi.

Nuroni otaxonlar ushbu muhim voqeikdan bag‘oyatda minnatdor ekanini bildirdilar va inshootni qurib bitkazilishini ta’minlagan “Vatanparvar” tashkiloti mutasaddilari haqqiga duo qildilar.

Tadbir davomida tashkilot tizimida “Motokross”, “Karting”, “Duatlon”, “Pnevmatik quroldan o‘q otish”, “Aviamodel”, “Raketamodel”, “Kemamodel” bo‘yicha tashkil etilgan sport seksiyalarining ko‘rgazmalari yoshlarda katta taassurot qoldirdi.



O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti matbuot xizmati

ekskursiya



O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Ixtisoslashgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Qarshi tumani ixtisoslashtirilgan maktabi, Qarshi shahridagi 45-umumta’lim maktabi negizidagi “Jasorat sinfi” o‘quvchilari Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug boshqaruv apparatiga ekskursiya qilishdi.



KELAJAK – VATANPARVAR AVLOD QO‘LIDA

Okrug mas‘ul ofitserlari tashabbusi bilan ertamiz egalarining harbiy-vatanparvarlik tuyg‘ularini yanada mustahkamlash maqsadida tashkil etilgan mazkur tadbirida dastlab mehmonlar bu yerda harbiy xizmatchilarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishtirildi. Yozgi va qishki bog‘lar, kutubxona hamda elektron kutubxonalar bo‘ylab qilingan sayohatlar qalbi ilmga oshno yigit-qizlarda katta taassurot qoldirdi. Ayniqsa, qurol-aslahalar namoyishi sharaflil kasbga qiziqishi yuqori yoshlar uchun unutilmas onlarni tuhfa etdi.

Okrug shonli tarixi muzeyi o‘z bag‘riga harbiy tarixni gavdalanitiruvchi turli ma’lumot va eksponatlarni qamrab olgan. Bir tomonda harbiy qismlar bosib o‘tgan katta yo‘l borasida zaruriy ma’lumotlar saqlansa, boshqa tomonda yurt o‘g‘lonlari erishgan yutuqlar

gavdalanitirilgan. Umuman olganda, muzey bo‘ylab kechgan ekskursiyaning o‘zi yoshlarda harbiy xizmat borasida ma’lumotlar olishga imkon berdi.

Shundan so‘ng okrug boshqaruv apparati madaniyat saroyida “Yoshlar ma’naviyati va intellektual salohiyatini oshirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalari” mavzusida “Uch avlod uchrashuvi” ham tashkil etildi. Ko‘p yillik harbiy hayot tajribasiga ega yoshi ulug‘lar ertamiz egalariga o‘z nasihat va maslahatlarini berdi.

O‘tkazilgan sarmazmun suhbatlar o‘quvchilarning yurtga ishonchini, harbiylik kasbiga mehrini yanada oshirdi. Qisqasi, shu bir kun qora ko‘zlar qalbida Vatanga muhabbat tuyg‘usini yanada mustahkamladi.

**Janubi-g‘arbiy maxsus
harbiy okrug matbuot xizmati**


Salomatlik

LEYSHMANIOZ QANDAY KASALLIK?

“Leyshmaniozlar leyshmaniyalar tufayli kelib chiqadigan va issiq iqlimli mamlakatlarda uchraydigan yuqumli parazitlar kasalligidir. O'rta Osiyo va Kavkazorti davlatlarida ikkita asosiy turi, visseral leyshmanioz va teri leyshmaniozi ko'rinishida uchraydi.

Visseral leyshmanioz qo'zg'atuvchisi – leyshmaniya donovani deb ataladi va itsimonlar turkumiga kiruvchi hayvonlar va odam organizmida yashaydi. Odam organizmi visseral leyshmaniozga juda moyil bo'lib, ko'proq bolalar kasallanadi. Infeksiyani flebotomus turkumiga kiruvchi iskabtoparlar tashib yuradi. Ular bemor odam yoki hayvon qonini so'rganida infeksiyani o'ziga yuqtirib oladi, shundan so'ng leyshmaniyalar iskabtopar tanasida rivojlanib, uning halqumiga qarab yuradi va shu yerdan iskabtopar chaqqan joyga tushadi. Leyshmaniyalar iskabtopar chaqqan joydan o'tib, qon oqimi bilan taloq, jigar, suyak ko'migi, limfa tugunlariga tushadi va ularni yemiradi. Iskabtopar chaqqandan so'ng kasallik belgilari paydo bo'lgunga qadar bo'lgan vaqt 2 haftadan 20 oygacha va bundan ham ko'proq davom etishi mumkin.

Iskabtopar chaqqandan so'ng kasallik belgilari asta-sekin paydo bo'ladi. Bemorning tinka-madori qurib, tana harorati ko'tarila boshlaydi, teri qoplamlari va ko'rinib turuvchi shilliq pardalar rangsizlanadi. Tana harorati kecha-kunduz ko'tarilib tushib turadi, qaltirash va terlash kuzatiladi. Kasallikning birinchi kunlaridan boshlab taloq kattalashadi, og'ir holatlarda uning yorilishi kuzatiladi. Vaqt o'tishi bilan taloq bilan bir qatorda jigar va limfa tugunlari kattalashadi. Oradan 2–3 oy o'tib, bemorda kamqonlik boshlanadi. Vaqtida maxsus davo choralarini ko'rilmasa,



visseral leyshmanioz surunkali turiga o'tadi. Bemorning terisi kulrang tusga kirib, shishlar paydo bo'ladi, ichni surib, ko'pincha qon aralash ichi keladi, tana vazni kamayib, qorni shishadi. Noto'g'ri davolanganda, xastalik 2 yilgacha davom etishi mumkin. Visseral leyshmaniozda ko'p uchraydigan asoratlari: zotiljam, quloqda, sut bezlarida va og'iz bo'shlig'ida yallig'lanishlar kuzatiladi. Tana immun tizimining susayishi va ikkilamchi infeksiyalar qo'shilishi natijasida xastalik o'limga olib kelishi mumkin.

Leyshmaniozning yana bir turi teri leyshmaniozi bo'lib, uning qo'zg'atuvchisi leyshmaniya tropika deb ataladi. Teri leyshmaniozining ikki turi, ya'ni qishloqqa xos (*yarali*) va shaharga xos (*quruq*) turi farqlanadi. Leyshmaniozning qishloqqa

xos turida kasallik manbai yovvoyi kemiruvchilar (*qum sichqonlari, yumronqoziq va boshq.*) bo'lib, xastalik ko'pincha yoz va kuz oylarida ko'proq uchraydi. Shaharga xos turida asosiy infeksiya manbai odam, it va ba'zida uy kemiruvchilari ham bo'lishi mumkin. Xastalanish aholi orasida yil davomida kuzatilib, kattalar va bolalar orasida bir xilda uchraydi. Leyshmanioz bilan kasallanib tuzalgan odamda o'sha turdagi qo'zg'atuvchiga nisbatan turg'un immunitet hosil bo'ladi.

Infeksiyani iskabtoparlar tarqatadi, ular chaqqan joyda kasallikning shaharga xos turida oradan 6–7 oy o'tib, qishloqqa xos turida esa 15–16 kundan keyin yara paydo bo'ladi. Iskabtoparlar ko'pincha tananing ochiq joylarini (*yuz, bo'yin, qo'l va oyoq sohasi*)

chaqqani va yaralarning soni iskabtoparning necha marotaba chaqqaniga bog'liq bo'ladi. Yaraning o'lchami asta-sekin kattalashib borib, 4–6 sm gacha yetadi va davolash yordamida bir-necha oydan keyin tuzala boshlaydi. Davo qilinmagan taqdirda yara bir yildan keyin tuzaladi va o'zidan keyin terida chandiq qoldiradi. Shuning uchun kasallik "yillik yara" deb ham ataladi.

Leyshmanioz kasalligiga qarshi kurashda birinchi galdagi vazifa, infeksiya manbai bo'lgan chiyabo'rilar, daydi itlar va kemiruvchilarni yo'qotish, endemik o'choqlarda esa uy itlari ustidan veterinariya nazoratini kuchaytirish zarur. Visseral leyshmanioz bilan kasallangan bemorlarni vaqtida aniqlash, davolash, bemor bilan birga endemik hududda bo'lganlarni o'z vaqtida tibbiy tekshiruvdan o'tkazish zarur. Aholini iskabtoparlar chaqishidan saqlash, ular ko'payishi mumkin bo'lgan joylarni yo'qotish zarur.

Dala sharoitida yoki ochiq havoda uxlash paytida pashshaxonalardan foydalanish, teriga iskabtoparlarni hurkituvchi vositalar surtish ularning chaqishidan saqlaydi. Endemik hududda joylashgan aholini va unday hududlarga xizmat safariga boruvchilarni leyshmaniozga qarshi emlash yaxshi samara beradi.

Aholining tibbiy bilim saviyasini oshirish, profilaktik chora-tadbirlarni rejali ravishda olib borish, sanitariya-targ'ibot ishlarini o'tkazish bilan kasallikning paydo bo'lishi va tarqalishining oldi olinadi.

**Tibbiy xizmat
podpolkovnigi M. SHAROPOV,
Qarshi sanitariya-epidemiologiya
nazorati bo'limi boshlig'i**

Men donorman

INSONPARVARLIK TASHABBUSI

Samarqand garnizonidagi harbiy qism tibbiyot punktida Samarqand viloyati qon quyish stansiyasi bilan hamkorlikda "Men donorman" shiori ostida insonparvarlik aksiyasi tashkil etildi.

Gematologik, onkogematologik va boshqa murakkab kasalliklarga chalingan yosh bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish, shuningdek ushbu kasalliklarning oldini olish va profilaktikasini kuchaytirish maqsadida tashkil etilgan mazkur aksiya mutaxassislar tomonidan katta ahamiyatga ega bo'lgan xayrli tashabbus sifatida e'tirof etildi.

Harbiy xizmatchilarning qon donorligida faol ishtirok etishi nafaqat bemorlarga zarur moddiy yordam manbaini yaratadi, balki jamiyatda sog'lomlik, mehr-shafqat va birdamlik g'oyalarini yanada mustahkamlaydi. Ushbu xayrli tashabbusi orqali harbiylar o'zining jamiyatga daxldorligini, inson hayotini asrash yo'lidagi mas'uliyat va fidoyiligini yana bir bor namoyon etdi. Shu jihatdan bu tadbir nafaqat tibbiy, balki ma'naviy-ma'rifiy



ahamiyatga ega bo'lib, aholi o'rtasida donorlik madaniyatini keng targ'ib qilishga xizmat qildi.

**Parvina ABDUHAMIDOVA,
Markaziy harbiy okrug
matbuot xizmati
bosh mutaxassisi**



O'q otish sporti



ICHKI XOTIRJAMLIK

BEXATO NISHON

• Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi sport bazasida pnevmatik quroldan o'q otish bo'yicha navbatdagi O'zbekiston chempionati bo'lib o'tdi. Bu musobaqa nafaqat mamlakat merganlik sporti rivojida muhim ahamiyat kasb etadi, balki yosh va tajribali sportchilar uchun ham ulkan tajriba maydoni bo'ldi.

Chempionatda respublikaning turli burchaklaridan kelgan erkaklar, ayollar va 14 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlar ishtirok etdi. Umumiy hisobda 200 nafarga yaqin sportchi g'oliblik uchun bellashdi. Har bir ishtirokchi uchun bu nafaqat texnik mahoratini namoyon qilish, balki ruhiy barqarorlik va diqqatni saqlash sinovi ham edi.

Pnevmatik quroldan o'q otish – jismoniy quvvatdan ko'ra diqqat, nafasni barqaror olish va psixologik muvozanatni talab qiladigan sport turi. Shu bois musobaqa tinch va ortiqcha shovqinsiz muhitda o'tdi. Har bir o'q uzish sportchining nafaqat mahorati, balki ichki xotirjamligini ham namoyon etdi.

Qiziqarli bellashuv natijalari:

10 metr masofaga vintovkadan o'q otish:

U-14 qizlar:

1-o'rin – Durdona Mavlonova;
2-o'rin – Amaliya Yuldasheva;
3-o'rin – Shaydaxon Mingqobilova.

U-14 o'g'il bolalar:

1-o'rin – Ilhom Tursunov;
2-o'rin – Muhammadamin Odiljonov;
3-o'rin – Abdulloh Odilboyev.

U-14 MIX:

1-o'rin – Ilhom Tursunov, Sug'diyona Turg'unova, Toshkent sh.;
2-o'rin – Diyor Ilhomjonov, Shaydaxon Mingqobilova, Toshkent vil.;
3-o'rin – Saidakbar Yakubov, Durdona Mavlonova, Namangan vil.

Ayollar:

1-o'rin – Muxtasar Tohirova;
2-o'rin – Ruxshona Abdualimova;
3-o'rin – Milena Hakimova.

Erkaklar:

1-o'rin – Javohir Sohibov;
2-o'rin – Muhammadjon Anvarov;
3-o'rin – Suhrob Mirzajonov.

MIX

1-o'rin – Javohir Sohibov, Gulbonu Qambarbekova, Toshkent vil.;
2-o'rin – Danil Traximovich,

Muxtasar Tohirova, Toshkent sh.;
3-o'rin – Nikita Sokolov, Milena Hakimova, Toshkent sh.

10 metr masofaga

to'pponchadan o'q otish:

U-14 qizlar:

1-o'rin – Zamira Abdullayeva;
2-o'rin – Shohruza To'rabekova;
3-o'rin – Sevilya Kerimova.

U-14 o'g'il bolalar:

1-o'rin – Tohir Shodmanaliyev;
2-o'rin – Xojiakbar Mamirjonov;
3-o'rin – Abdurahmon Burxonov.

U-14 MIX:

1-o'rin – Amirbek Alibekov, Shohruza To'rabekova, Toshkent sh.;
2-o'rin – Tohir Shodmanaliyev, Zamira Abdullayeva, Toshkent vil.;
3-o'rin – Hasan Nasrullayev, Sevilya Kerimova, Namangan vil.

25 metr to'pponchadan o'q otish (MP-5):

1-o'rin – Muhammad Kamalov;
2-o'rin – Ilhom Obidjonov;
3-o'rin – Nigina Saitkulova.

50 metr to'pponchadan o'q otish (MP-6):

1-o'rin – Muhammad Kamalov;
2-o'rin – Nigina Saitkulova;
3-o'rin – Vladimir Svechnikov.

50 metr vintovkadan

o'q otish (MV-9):

1-o'rin – Nikita Sokolov;
2-o'rin – Suhrobjon Mirzajonov;
3-o'rin – Ruxshona Abdualimova.

50 metr vintovkadan

o'q otish (MV-5):

1-o'rin – Nikita Sokolov;
2-o'rin – Muxtasar Tohirova;
3-o'rin – Suhrobjon Mirzajonov.

Chempionatning yopilish marosimi tantanali bo'lib o'tdi. Mudofaa vazirligi va O'zbekiston o'q otish federatsiyasi mas'ullari g'olib va sovrindorlarni diplom, medal va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirladi.

Ushbu chempionat yosh iste'dodlarni kashf etish va ularni rivojlantirishda muhim rol o'ynadi.

Sherzod SHARIPOV,
“Vatanparvar”



Ko'rik-tanlov

ENG ILG'OR VA ENG YAXSHILAR ANIQLANDI



Mudofaa vazirligi qo'shinlarida madaniyat markazi boshliqlari hamda harbiy qism kutubxona xodimlari orasidan eng ilg'orlarini aniqlash, ularning ish tajribasini o'rganish, qo'shinlarda soha bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarning unumdorligini oshirish, bilim va ko'nikmalarini boyitib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, o'zaro tajriba almashish tizimini yo'lga qo'yish maqsadida turli tanlovlar o'tkazib kelinmoqda.



Ayni harakatlar natijasi o'laroq Mudofaa vazirligi Ma'naviyat va madaniyat departamentida vazirlik qo'shinlarida an'anaviy tarzda o'tkaziladigan harbiy qism komandirining ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha maslahatchisi – madaniyat markazi boshliqlari o'rtasida “Eng ilg'or madaniyat markazi boshlig'i” hamda harbiy qism kutubxonachilari o'rtasida “Eng yaxshi kutubxonachi” ko'rik-tanlovlarining yakuniy bosqichi o'tkazildi.

Mazkur turda harbiy okrug hamda birlashmalar bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan 9 nafar ishtirokchi o'zaro bahs olib bordi. Ta'kidlash lozim, yakuniy bosqichga yetib kelgan “Eng ilg'or madaniyat markazi boshlig'i” ko'rik-tanlovi ishtirokchilari 3 ta shart bo'yicha bellashdi.

Tanlov qatnashchilari dastlab yil davomida bajargan ishlari bo'yicha hisobot berdi. Shuningdek, tashkil etilgan badiiy havaskorlik jamoalari va to'garaklar, o'tkazgan tadbirlari, amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tayyorlagan fotoalbomlari ko'rib chiqildi.

So'ngra hakamlar hay'ati tomonidan ularning kasbiy tayyorgarlik darajasi baholandi. Bunda ishtirokchilarning harbiy qism va muassasalarda o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy va madaniy hordiq chiqarish tadbirlarining reja va ssenariysini tuzish bo'yicha amaliy sinovlari qabul qilindi. Yakuniy bosqich, ya'ni nazariy qismda ulardan mutaxassislik bo'yicha test sinovi olindi.

“Eng yaxshi kutubxonachi” ko'rik-tanlovida esa ishtirokchilar yil davomida harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchilarining

kitob mutolaasiga bo'lgan qiziqishini oshirish bo'yicha amalga oshirgan ishlari yuzasidan hisobot hujjatlarini taqdim etdi. Shuningdek, kutubxona fondi va adabiyotlar bilan ishlash, foydalanuvchilarga ko'rsatayotgan kutubxona xizmati turlari ham hay'at a'zolari tomonidan ko'rib chiqildi. Yakuniy shartlar bo'yicha kutubxonachilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi baholandi. Bunda kutubxonada mavjud adabiyotlardan mavzuga oid bibliografik ko'rsatkich tuzish bo'yicha amaliy sinovlar qabul qilindi. Nazariy qismda esa ulardan o'zbek va jahon adabiyoti namoyandalari asarlari bo'yicha test sinovi olindi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, “Eng ilg'or madaniyat markazi boshlig'i” ko'rik-tanlovida faxrli 3-o'rinni Hayotxon Mahramova, 2-o'rinni Ma'mur Ahmedov qo'lga kiritdi. Kichik serjant G'olibjon Azimjonov tanlov g'olibi deb topildi.

“Eng yaxshi kutubxonachi” ko'rik-tanlovida Mudofaa vazirligi tasarrufidagi qo'mondonlik harbiy qism kutubxonachisi Qurolli Kuchlar xizmatchisi Buvixol Jolbekova 3-o'rinni hamda Shimoli-g'arbiy harbiy okrug harbiy qism kutubxonachisi Qurolli Kuchlar xizmatchisi Nodira Madrimova 2-o'rinni egalladi. Markaziy harbiy okrug harbiy qism kutubxonachisi Qurolli Kuchlar xizmatchisi Muhayyo Fayzullayeva 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Yakunda g'olib deb topilgan madaniyat markazi boshliqlari hamda kutubxona xodimlari diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Sherzod EGAMBERDIYEV,
“Vatanparvar”



VATANPARVAR



MUASSIS
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Timur Narziyev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: katta leytenant Dilshod Ro'ziqulov
Sahifalovchi: Tohirjon Turg'unboyev
Musahhih: Zebo Sariyeva

Buyurtma: V-6050
Hajmi: 6 bosma tabaq
Bichimi: A3
Adadi: 31 955 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “O'zbekiston” NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“O'zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@uamail.uz

mudofaavazirligi

mudofaavazirligi

www.youtube.com/c/UzArmiya